

УДК: 398.21

КБК: 84(Ў)7

N11

Mas'ul muharrir

Tursunboy Adashboyev

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga tavsiya
etilib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.
Kitob respublika ta'lim muassasalari
kutubxonalariga bepul tarqatiladi.*

Nabiyeva, Rushana

N11

Farishta Mim sarguzashtlari: ertaklar, masallar, lavhalar /
R.Nabiyeva Mas'ul muharrir: **T. Adashboyev** T.: «ADIB», 2012,
48-bet.

УДК:398.21

КБК: 84(Ў)7

ISBN 978-9943-317-88-8

© «ADIB» nashriyoti, 2012

© R. Nabiyeva



YONIQ QALB IZHORLARI

Dunyoda Ona kabi suyuk, Vatan kabi ardoqli yana bir qadriyat bor. Volidayi muhtaramaga, suyukdan suyuk ona-Vatanga muhabbatimizni izhor ettirguvchi, tuyg'ularimizni qanotlantirguvchi bu qadriyat, shubhasiz, So'zdir. So'z insonni, qaysi soha vakili bo'lmasin, o'z sehru jilosiga maftun etadi, o'y surishga, xayollar og'ushiga cho'mishga majbur etadi. Chunki So'zning sehri, ilohiy qudrati bor. Ayniqsa, inja hissiyotlarni o'zida jo etgan Badiiy So'zning sehru kuchi bo'lakcha. Shu bois unga maftunlar ko'p, shu bois undan bahramand bo'lgisi va boshqalarni ham bahramand etgisi kelgan sohibi qalamlar bisyor. Uyushmaga ana shunday bezavol va umidbaxsh tuyg'u asiriga aylangan ko'pdan ko'p yoshlarimiz "ko'ksida adabiyotga havasni hovuchlab" kelishadi. Ularning ko'zidagi hayrat-hayajonni ko'rib, quvonib ketasan, kishi. Chunki kitobga mehri baland, adabiyotga muhabbati bo'lakcha yoshlar yurtning ertangi umidlaridir. Bu safda ilk izlanishlari bilan ustozlar e'tiboriga tushib ulgurgan umidli yosh qalamkash Rushana Nabiyeva ham bor.

Badiiy ijodning azaliy mavzulari talaygina: yurt ishq, insoniy sevgi-muhabbat, mehr-oqibat, shukronalik, fidoyilik, ilm-ma'rifatga da'vat... Rushananing izlanishlari ko'zdan kechirilganda, bularning deyarli barchasiga murojaat etilganligini ko'ramiz. Eng

muhammadi, u bu mavzularga shunchaki daxl qilish bilan cheklanmay, o'z qalb olamida kechgan his-tuyg'ular ifodasiga ham keng o'rin beradi. Natijada yozganlarida tajribasiz havaskordan ko'ra qalami ancha shakllanib qolgan iqtidor egasi sifatida ko'zga tashlanadi. Navqiron qalbi yoshlik sururiga to'la qalamkashning barchani ezgulik barqaror bo'lgan olamda yashashga undashi uning adabiyot oldiga qo'yilgan azaliy va muqaddas talablardan yaxshi xabardorligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, uning bolalar va kattalar munosabatlariga takror-takror murojaat etishi o'quvchini zeriktirib qo'ymaydi. Aksincha, katta-yu kichikni muallifga qo'shib o'y surishga undaydi. Bu jihat uning turkum ertaklari, masal hamda adabiy lavhalariga xos eng muhim fazilatdir.

Albatta, ijod ham xuddi ilm kabi cheksiz, poyonsiz. Uning sirli-sehrli olamiga kirib borganing sari yangi yangi mo'jizalar bo'y ko'rsataveradi. Rushanaxon kelajakda ko'p o'qish, izlanish, ijod sirlarini chuqur o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratsa, yozganlarini takror-takror sayqalash tajribasini orttirsam, bunday nafaqat uning o'zi, balki talabchan kitobxon ham faqat va faqat yutadi. O'ylaymanki, yoniq qalbi izhorlarini qog'ozga tushirish ishqida tinimsiz izlanayotgan yosh iste'dod egasi buni yaxshi angelaydi hamda yangi va yaxshi asarlar yaratish orzusidan ilhom olaveradi!

*Toshpo'lat AHMAD,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi, shoir*

ERTAKLAR

MOVIY OT IZIDAN

Birinchi qism

Bahor. Bodom gulladi. Bog' yonidan o'tsangiz o'rikning oppoq gullari sizni quchoqlash uchun uchadi. Anhor suvlari xushchaqchaq parilar kabi shodon kulib, o'z ertaklaridan so'zlaydi. Maysalar ko'klam isini atrofga taratish bilan ovora. Tabiat ona zaminga quvnoq liboslar tikib beryapti. Butun olam harakatda. Maktab bog'ida qizlarning shodon kulishlari quloqqa chalinadi. Bu kulgularni qadrdon chorbog' xush ko'radi. Chunki uning Xumor, Shirina, Mushtariy singari malikalari tashrif buyurishgan. Bu uch qiz kelinchak faslni jondan ortiq sevadilar. Negaki, shu faslda ularning do'stlik rishtalari bog'langan, shuningdek, makonlari bo'lmish bog' ham bahorda go'zallashardi-da.

Darvoqe, ularning niyatlari ham bir-biriga o'xshash. Shirin barcha insonlar qalbini otashdek yondiruvchi, ta'sirchan she'rlar bituvchi shoira bo'lmoqchi. Xumor esa dilkash qo'shiqchi va aktrisa bo'lish orzusida. Mushtariyga keladigan bo'lsak, u bolalar yozuvchisi bo'lishni istaydi.

Ular har bahorning birinchi oyi o'n yettinchi kuni da bog' yonidan o'tgan anhor labiga kelib, qog'ozdan qayiqcha yasardilar va shu qayiqchani yuziga o'z istaklarini yozib, uni suvga qo'yib yuborardilar. Bu

odat ularni o'z orzulari tomon ildam yurishga undardi.

Bugun har doimgiday qizlar bog'ga kirib, tengsiz rassom bo'lmish tabiatning noyob bo'yoqlariga termulib turishardi.

- Atrof misoli farishta, chehrasida hech qanday yomonlik aksi yo'q. Qani endi bir umr shu yerdan chiqmasdan uning vaslini madh etuvchi she'rlar yozsam, - dedi Shirina.

- Men pianinoda biror kuyni o'rganmoqchi bo'lsam, albatta, bahor tarovatini yodga olaman. Shunda o'sha kuyni tezroq o'rganaman va mahorat-la ijro etaman, - kulib qo'ydi Xumor.

- Hikoyalarimda tabiat nafosatini yoritmoqchi bo'lsam, men ham quvonch hadya etuvchi bahor faslini jonlantiraman, - qo'shib qo'ydi Mushtariy.

Ular atrofga termulib uzoq o'ylanishdi. Xayol... Xayol. U gohida eng yaqiningga aylanib qoladi. Chunki xayol bag'ridagina ba'zi narsalar ushalishi, yetib bo'lmas cho'qqilar zabt etilishi mumkin.

- Qizlar, kecha qog'ozdan yasalgan qayiqchaga qanday niyatlaringizni yozdinglar, - hayrat bilan Shirin va Xumorga qaradi Mushtariy.

- Men armon bo'lishi mumkin bo'lgan tilagimni yozdim. Bilasizlarmi, uyda hech kimning men bilan ishi yo'q. Gazetalarda she'rlarim chiqishini, kitobim chop etilishini, shoirlaru yozuvchilar bilan uchra-shishni shunday istaymanki. Menga ustoz kerak. Koshki oiladagilarim menga imkon yaratishsa. Shu niyatni yozgandim qayiqchada.

- Men esa pianinosiz hayotimni tasavvur eta

olmayman. qo'shiq kuylab, pianino chalish – mening hayotim. Dadam shifokor bo'lishimni istaydilar, ammo men aktrisa bo'lmoqchiman. O'z kelajagimni o'zim qurishim uchun ota-onam roziliklarini olishni bitgandim. Sen-chi, Mushtariy, nimani yozganding? – so'radi Xumor.

– Menda bunday muammolar yo'q. Ammo dunyoni ko'rishni, sayohat qilishni istayman. Nimanidir kutib yashayapman. Ammo buning nimaligini o'zim ham bilmayman. Olamni ko'rish mening doimiy orzuim. Boshqa joylarni ko'rib kelib, o'z yurtingga yangiliklarni olib kelish ham baxt. Bu bilan o'zga yurtlar tabiatini, urf-odatini o'rganasan va o'zga xususiyatlarni bilib olasan, – orziqib ketdi Mushtariy.


Uch qiz yana sukunat ummoniga g'arq bo'lishdi. Ularni noaniq savollar qiynar, vujudlarida qandaydir beqarorlik kezardi.

Uch oylik ta'til ham boshlandi. Mushtariynikiga mehmonga kelgan Shirina va Xumor tunda so'rida suhbat qurib yotishardi.

– Osmonda yulduzlar g'uj-g'uj. Xuddi suhbat olib borayotgan bilimdon talabalar-a. Talabalar bilim borasida bir-biridan o'zib ketishga urinsa, yulduzlar insonning ichki olamini o'rganish bilan band, – o'xshatdi Mushtariy.

– Oy yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, vataniga muhabbat hissi bilan ilm beruvchi ustoz, – tabassum qildi Shirina.

– Bepoyon va go'zal osmon kuch-g'ayratli yoshlar, olijanob ustozlar yurti. Qadimdan porloq yulduzlardek



ilmga chanqoq, yuqori saviyali kishilar osmoni – O‘zbekiston, – fikrini nihoyasiga yetkazdi Xumor.

Qizlarning uxlab qolganlariga ikki soat ham bo‘lmadi. Ular suvning quvnoq ovozidan uyg‘onib ketishdi va o‘zlarini okean yonida ko‘rishdi.

– Qayerdamiz? – so‘radi Xumor ajablanib.

– Bu yerda taxtachada Nilay okeani deb yozib, qoqib qo‘yishibdi, – dedi qirg‘oqdagi ulkan daraxtga qoqib qo‘yilgan taxtachani ko‘rsatib Mushtariy.

– Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeanlarini bilaman. Ammo Nilay okeani haqida eshitmaganman, – hayron bo‘ldi Shirina.

– Demak, biz umuman o‘zga joydamiz. Yer yuzidan yiroqda, lekin o‘zga sayyorada emas, – o‘ylanib dedi Xumor.

Ular turfa savollar girdobida qolishdi. Qanday qilib bu yerga kelishdi? Bu okean qaerdan paydo bo‘ldi. Kim ularni boshlab keldi?

Uzoqdan oppoq yelkanli kema ko‘rindi. U shu qadar nafis va chiroyli ishlangan ediki, uni ta‘riflash uchun hali dunyoda betakror so‘z yaralmagandi. Kemadan malla sochli, ko‘k ko‘z, qanotli ikki ayol chiqdi. Qizlarni ham kemaga boshlab suhbatlashishdi:

– Sizlar qayerga ketayapsizlar? – so‘radi birinchi bo‘lib Shirina. U qiziquvchan, shaddod qiz edi.

– Mening ismim Ella, singlimniki Betta. Bu yerlar “Usonchehra kapalaklar”ga qarashli. Biz ham shu yerlikmiz. Singlim ikkalamiz umid baxsh etuvchi, orzularni ushaltiruvchi farishta Moviy ot oldiga boryapmiz.

– Moviy ot, – takrorladi Mushtariy, – uni tasvirlay olasizmi?

– Afsuski, uni oldin hech koʻrmaganman. Biz kapalaklar vatanida u haqida afsonalar koʻp. Aytishlaricha, uning tanasi moviy rangda, peshanasida yarim Oy tasviri bor, tanasida yulduzlar porlab, yaltiroq yollari va koʻm-koʻk koʻzlari insonga umid bagʻishlar ekan. Olloh taolo uni odamlarga umid bagʻishlash, yoʻl koʻrsatish, ezgulik tarqatish maqsadida moʻjizalar olamiga yuborgan emish.

– Qiziq, nega uni qidirib yuribsiz? – soʻradi Xumor insonchehra kapalaklardan.

– Men... men yurtim qonunini buzib, Xayolot yurtidagi boshqa kishini sevdim. Bizda faqat vataningdagi kishini sevishing, faqat u bilan turmush qurishing kerak. Men oʻzgani sevdim va shuni deb Xayolot hamda Kapalaklar oʻlkasidagi aloqa buzildi. Muhabbatimga ham erisholmayapman. Xalqimga nisbatan ham vafosizlik qilyapman. Netay, Ikki oʻt orasidaman. Uning nigohlarini, tabassumlarini qanday unutay. Vujudim azoblanmoqda, – yigʻlab yubordi Ella.

– Opamni yolgʻiz qoʻyib yubormasdim. Axir, u jigarbandim. Noiloj tugʻilgan kunimga sovgʻa boʻlib kelgan kemaga oʻtirib, Moviy ot makoni tomon yoʻl oldik, – opasini yupatdi Betta.

Qizlar hayratda edilar. Ular, endi oʻn besh yoshga kirgan boʻlib, muhabbat neligini bilmas edilar. Shunday boʻlsa-da, qizlar Ellaning ahvolini tushunishga urindilar.

– Tez chiqishib ketarkansizlar, – kema dan okeanga termulib qizlarga qarata aytdi Betta.

– Bu xalqimizga xos odat, – faxrlanib ketdi Xumor.
Okean shunday jozibador ediki, undan ko‘z uzol-
maysan. Esayotgan shamol yuzlaringdan, ko‘zlaringdan
bo‘sa oladi. Nafis tuyg‘ular og‘ushida bo‘lasan o‘shanda.

Tun yarmidan oqqanida Shirina chiroq nurini
ko‘rganini Ellaga aytdi.

– Bu qaroqchilar kemasi, – dedi Ella. – Endi nima
qilamiz?

– Qayiqchani suvga tushirib, kemani tashlab ketish
kerak. Adashmasam, shu yaqin atrofda g‘or bo‘lishi
kerak. Qochishimiz lozim, tezda. Qaroqchilar kemani
olib, bizni o‘ldirib ketishlari aniq, – kuyindi Betta.


Qayiqqa o‘tirishayotganda “Betta va Ella bu kemani
sovg‘a tariqasida, oson topdilar. Oson topilgan narsa
bilan niyating tomon yurolmaysan“, – xayolidan
o‘tkazdi Shirina.

G‘or sharsharaning ro‘parasida bo‘lgani uchun
tongda ajoyib manzara kasb etardi. Yuvinib olgan
qizlar g‘aroyib gullarni ham ko‘rdilar. Bu gullarning
ifori qalbga qo‘ngan g‘uborlarni tarqatib yuborardi.
Suvning shildirashi yoqimli kuy edi go‘yo. Oftob
nurlari suvga tushganda ajib ranglarni kashf etadi.
Bunda ko‘ngil hayot tashvishlaridan yiroq.

– Bu gulning ichi to‘la suv-a. Nega bunday? –
hayratlandi Xumor.

– Bu suv bilan soch yuvilsa, undan yoqimli hid
taraladi. Mana, bu oq guldin sovun sifatida foydalanish
mumkin.

Sharsharada uzun sochlarini yuvayotgan hamda
suvda suv parilari kabi cho‘milayotgan qizlarning



yodiga qadrdon bog'lari tushdi. Bog'da ham ular o'zlarini bu yerdagidek erkin sezardilar. Quvnoq qiyqirib kulishlarini hech kim to'xtatolmas edi o'shanda ham.

– Maza qildim. Suvning sovuqligini aytmaysizmi, – ho'l sochlarini sochiqdek keladigan barglar bilan artdi Shirina.

– Bu ko'ylaklarni sizlarga deb o'lgan arilarning nafis va nozik qanotlaridan tikdim, – dedi Ella tikkan liboslarini qizlarga kiydirib. Ko'ylaklar malikalarning sochlari bilan barobar edi. Libos qizlarni ertaklardagi parilardek go'zal qilib yuborgandek edi.

Ikkinchi qism

Qayiq bilan uzoqqa borolmasliklarini anglagan sayohatchilar quruqlikdan yayov yurishga kirishdilar. Barchaning xayolida orzulari charx urardi. Xuddi niyatlar ushalishiga bir bahya qolgandek. Hatto horib-charchaganda, tashnalikdan qiynalغانlarida ham orzular ularga umid bag'ishlardi.

Birdan yer qimirlagandek bo'ldi, so'ng qo'rqinchli ovoz eshitildi.


– Bu nima? – so'radi Betta opasidan.

– Bilmasam... Qo'rqib ketyapman.

Ovoz yaqinlashdi.

– Maxluq! – qichqirdi hamma.

Noma'lum maxluq odam isini olgandek qizlar yashiringan buta yaqiniga keldi. Qattiq va dahshatli o'kirdi. Yashiringanlarning yuraklari qinidan chiqay derdi.



– Orqaga yo‘l yo‘q, qochdik! – qichqirdi Shirina. Ular to‘xtamasdan yugurardilar. Axir, orqalaridan dahshatli maxluq kelardi-da. Sayyohlar to‘xtadilar. Chunki yo‘l yo‘q, atrof dengiz bilan o‘ralgandi.

– Endi nima qilamiz. U kelyapti, – qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titradi Xumor.

– Agar bu yerda kutilmagan kishilar ko‘p bo‘lsa, unda bizni suvning narigi tomoniga o‘tkazish uchun suv parilari ham bordir.

– To‘g‘ri, biz bormiz, – suvdan chiqdi suv parisi. – Ba‘zan yordam beramiz, ba‘zida esa yomonmiz. Hozir sizlarni o‘tkazishimni istayapsiz. Lekin sizlarni o‘tkazsam, maxluq dengizga tushib, sizlarni izlaydi va bu orada bizni topib, halok qiladi. Yaxshisi, suvqilichni beraman. Oralaringda mard bo‘lsa, u bilan kurashsin, – deb suv parisi dumidagi tangachalardan birini oldi va suv tomizdi. Shunda tangacha qilich dastasiga, suv esa sinmas qilichga aylandi. Bu qilich egiluvchan va suvga xos xususiyatga ega bo‘lib, sira ham sinmas edi. Suv parisi yana bir tomchi suv olib puflab yubordi. Tomchi qalqonga aylandi.

– Men har doim maxluqlar bilan kurashib, ojiz qiz emasligimni ko‘rsatmoqchi bo‘lardim. U bilan men kurashaman, – suvqilichni dadil qo‘lga oldi Xumor.

U dengiz suvi baland to‘lqin hosil qilgan paytda maxluq ustiga chiqib oldi. Maxluqning o‘kirishi, ulkan tishlari, boshini har tomonga silkishi Xumorni qo‘rqitmasdi.

– Nahot hech narsa qilolmasak? Tomoshabin bo‘lib turaveramizmi? – so‘radi Mushtariy.

– U hammasini eplaydi, – Mushtariyni tinchlantirdi Shirina.

Shirina aytganidek bo‘lib chiqdi. Maxluq qilich zarbidan yiqilganida, Xumorning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortdi. Hammasi ortda qoldi. Yana uzoq yo‘l yurmoq kerak edi.

Qizlarning tunlari ham, kunduzlari ham yo‘l yurishlariga to‘g‘ri keldi. Tunda Oy ustidagi shirin xayollar hamroh bo‘lsa, kunduzi yorqin orzular ularni peshvoz olardi. Nihoyat, dam olish uchun boshpana topildi. Bu oddiy kulba emas, haqiqiy saroy edi. Ichkariga kirishlari bilanoq, qidirayotganlari – Moviy ot ularni kutib oldi. Uning go‘zalligini, ko‘zlaridagi ishonchni tasvirlashga qalam ham ojiz. Moviy otni har bir kishining o‘zi tasavvur etmog‘i lozim, menimcha.

– Qadamlaringizga hasanot, xush kelibsiz. Qaysi shamol sizlarni bu yerga boshlab keldi? – mulozamat bilan dedi ot.

– Orzular bizni siz tomon boshladi, – dedi Ella.

– Ella, qismatingizdan xabardorman. Yurtingizdan chiqib ketgan kuningizning ertasiga Xayolot va Kapalaklar olamidagi rishta qayta bog‘landi. Bunga sevingiz qudratiga ishonganingiz sabab, – tabassum qildi Moviy ot.

Ellaning quvonchi ichiga sig‘masdi. Xuddi shunday uning singlisi va uch dovyurak qizning ham.

– Shirina va Xumor, kishi hech qachon “yengildin” deyishi kerak emas. Olg‘a yurmoq, qo‘rqmasdan qadam tashlamoq lozim. Qo‘rquv ishonchsizlikni keltirib chiqarishini unutmang. O‘z kuchingizga ishonib

va o'zgalarni ham ishontiring, harakat qiling. Tangri sendan harakat – mendan barakat degan, – ko'zini qisib qo'ydi Moviy ot.

– Xo'sh, Mushtariy, siz nimani istaysiz? – so'radi Moviy ot.

– Men xudbinlik qilibman. Orzularga bilimim, aqlim bilan yetisha olardim. Shirina va Xumorga o'xshab qiyin vaziyatda emasman. Olamda o'z o'limini kutib yashayotgan bemorlar, tirnoqqa zor, nogiron kishilar, ota-onasi bo'lishini xohlaydiganlar bor. Menga yozuvchilik mahorati noumidlik qalbini egallaganlarga umid bag'ishlash uchun berilgan. Ya'ni turfa va rang-barang odamlar dunyosiga qalamim bilan kirib kelish. Rahmat sizga, buni anglashinga yordam berdingiz, – dedi Mushtariy Moviy otga qarab, o'zini yengil his etarkan.

– Mushtariy, insonlarga umid baxsh eting. Xumor, ularning qalbiga ishonch olib keling. Shirina, ezgulikni tarannum eting. Bilib qo'yinglarki, Ishonch, Umid, Ezgulik yo'q ekan, men ham yo'qman. Ella, vatandoshlaringizning barchamiz bir oila ekanligimizni anglab yetishlariga ko'maklashing. Betta, og'ir damda opangizni tashlab ketmadingiz. Shu xislat sizda muqim bo'lsin, – jiddiy ohangda gapirdi Moviy ot.

Hamma o'z vataniga qaytdi...

Uch qizaloq hozir shirin uyquda. Shuncha yo'lni bosib o'tish oson emas-ku, axir. Ular hali bundan-da mashaqqatli yo'lni umr davomida bosib o'tadilar. Endi malikalarga xayrli tun tilaylik.

Azizlar, ko'ngilni g'arazga to'ldirish, g'iybat,

araz, yomonlikdan aslo foyda yo‘q. Aksincha, ezgu niyatlar qalbni nurafshon aylaydi. Keling, qo‘lni qo‘lga berib, qalbni quyosh nurlari-la yorug‘ aylab, birga ilk qadamni qo‘yaylik. Biz bir oila, bir jamoamiz. Bir-birimizga ko‘mak bermoq, umid baxsh etmoq, kechirimli bo‘lmoq – insoniy burchimiz. Bir-birimizning qo‘llarimizdan tutaylik. Toki olam mehr-muhabbatning xushbo‘ylariga to‘lsin...

FARISHTA MIMNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI

“Farishtalar saltanatidagi o‘n besh yoshni qarshi olgan har bir farishta sayohatga chiqishi zarur. Belgilangan muddatgacha ular o‘z-o‘zini tushunib olishlari, qalblariga yaqin inson bolasini topib, bir umr unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishlari darkor. Farishtalar konstitutsiyasi, 10-modda”, – o‘qib eshittirdi barcha o‘n besh yoshli sayohatchilarga Bosh Vazir.

– Mana bu yostiqlar qiroli xonadonidan hadya, – dedi malika Kapalak. – Endi barchaning yolg‘iz yo‘lga tushishi vaqti yetdi, qanotlaringizni asrab ucha qoling.

Farishtalar ko‘m-ko‘k osmonda parvoz eta boshlashdi. Bu quvonchli kunda mushaklar – yomg‘irlar yerga otildi. So‘ng farishta qizlarni tarbiyalovchi sehergar quyosh uzoqdan o‘quvchilariga qo‘l silkitdi. Omad ramzi sifatida yetti rangdan iborat pok orzu va umidlardan yaratilgan kukun – kamalakni sochdi. Tunda yigit farishtalarning tarbiyachisi Oy va yulduzlar zafarlar yor bo‘lishini tilab duo qilishdi. Shu tarzda bola-farishtalar bilan xayrlashuv kechasi nihoyasiga yetdi. Bir kunning o‘rtasida turfa olamlar ularni qarshi olib, bir-biridan ayirdi. Endi uchrashishlari gumonga aylangan nafis qanot sohiblari ALVIDO so‘zini tilga olishdi.

* * *

Mim ota, onasiz ulg‘aygani bois, sayohat davomida uncha qiyalmadi. Biroq u hech o‘zini tushuna olmas,


qalbiga quloq solishni bilmas edi. O'z-o'zini anglab yetmaslik esa dunyodagi eng katta g'am. Uning qanotlari charchab qoldi va u bir o'rmonda tunashga majbur bo'ldi.

Tun ichida sokin o'yg'a toldi. Yoshligidan u o'ziga o'xshash farishtalarni izlaydi. Dunyoda har narsadan mo'jiza axtaradigan, yolg'izlik bag'rida kumush tolali ertaklar yaratadigan, ko'ngil torlari nihoyatda nozik farishtani. Ammo hayot ummonida bir xil tongni, bir xil makonni topolmaganing singari bir xil farishtani uchratmas ekansan.

Mim onasini ko'rmagan. Ko'ngli sezadi, faqat volidasigina bu qizaloqning o'zini anglashiga yordam bera oladi. Ehtimol, otasining quchog'iga bosh qo'yg'anida ham o'zini qiynagan savollariga javob topardi. Mimning ota-onasi jannatda hisobchi bo'lib ishlashardi. Jannatdagilar hech qachon farishtalar o'lkasiga maktub yozolmaydilar, farzandlari o'n oltiga kirgandagina ularga ko'rishish uchun ruxsat beriladi.

*Qani, qayerlarda mening sirdoshim,
Sog'inchlar yemirib borar bardoshim.
Hatto arazladi ko'zdagi yoshim,
Onajon, siz qachon silaysiz boshim...*

U malika Kapalak sovg'a qilgan yostiqaqa bosh qo'ydi. Negadir yostiq ho'llanib, yana o'z holiga qaytdi. Xuddi farishta qiz dardlari yostiqaqa ko'chganidek edi.



Tong mahali atrof yorishib, Mim o'z yo'lida davom etdi. Havo sovuq, ammo toza edi. Shu payt Yer uzra oq ro'molli jajji malaklar tarqala boshlashdi. Mim ularni tanidi, bular u bilan birga tahsil olgan bo'yi past farishtalar – qorlar edi. U qorparchalardan birini qo'lga oldi.

– Salom, oppoq qor, – shivirladi so'ng.

– Salom, Mim, qayerga ketmoqchisan? – so'radi qorparcha.

– Odamlar makoniga.

– Hozir yanada sovuq bo'ladi. Havo iliq bo'lishigacha kut.

– Qayerda kutay?

– O'rmon chekkasida hayvonlarning eng sara daraxtlardan qurilgan ulkan uyi bor. O'sha yerga borib, ishlaringni rejalashtirib ol.

– Tashakkur.

– Hali ham o'zing haqingda hikoya yozyapsanmi?

– Albatta. Ko'rasan, men farishtalar ichida eng zo'r farishta bo'laman.

– Omadingni bersin. Men haqimda yozishni unutma. Xayr, Mim.

– Xayr, qorparcha.

Qora soch farishtamiz qorlar kuzatuvida bir amallab hayvonlar uyiga keldi. Dir-dir titrayotgan qo'llari bilan zorga eshikni taqillatdi. Chiroyli bezaklar berilgan eshikni ertaklarda ayyor deb tasvirlangan Malla tulki ochdi. U ustiga issiq ko'ylak kiygan, quloqlariga zirak taqqandi.

– Kiraqoling, qizim, – uyga boshladi tulkivoy. Mim hayrat og‘ushida ichkariga kirdi. Chunki ichkarida Quyon, Bo‘ri, Tovuq, Silovsin va boshqa bir qancha jonivorlar yonma-yon, tinchgina suhbat qurishardi. Mim shinam uyga joylashib olgach, hayvonlar unga savol bera boshlashdi.

– Siz qaysi qushsiz? – so‘radi Silovsin farishtaning qanotiga qarab.

– Men qush emas, ko‘kdagi farishtalar avlodi Mimman.

– Farishta... – baravariga takrorladi o‘rmon ahli.

– Farishta Mim, siz qayoqqa ketmoqchisiz? – hayrat bilan so‘radi Quyon.

– Odamlar yurtiga.

– Voy, sizdan iltimos, ularga ayting men hech ayyor emasman. Aksincha, to‘g‘ri so‘z, mehribonman, – hayajonlanib gapira ketdi Tulki.

– Men esa hozir quyonlarni yemayapman, – Tulkidan qolib ketmaslik uchun so‘zladi Bo‘ri.

– Biz shunday damlama tayyorladikki, uni ichgan har bir hayvon o‘zi istagan ta‘mni sezadi va qorni to‘yadi. Ammo bu iroda va istakka ham bog‘liq, – Tulki va Bo‘rining gapiga oydinlik kiritdi Tovuq xonim.

– Siz insonlarga borib bizning o‘zgarganimiz haqida ayting. Shoiru yozuvchilar bizlarga xos ezgu xislatlarni o‘ylab topishsin, – shodlanib dedi Silovsin.

– Ulkan imorat qurib, barchamiz birga yashamoqchimiz, hamjihatlikda mehnat qilmoqchimiz. Bilasizmi, hatto kit, akula va baliqlar hozirda qabil-inoq yashayaptilar, – quvonib dedi Tulki.

Mim hayvonlarning shoshib aytayotgan soʻzlarini diqqat bilan eshitdi va ularning oʻzgargani haqida odamlarga aytib berishni vada qildi.

“Koʻhna olam umidi, shunday sirlar dengizida suzaveramiz-u, lekin hech qachon qirgʻoqni koʻrolmaymiz”, – oʻyladi Mim. – Naqadar gʻaroyib olam.

U bajaradigan ishlarini birma-bir qogʻozga tushirdi.

Birinchisi, yozuvlik libosini yaxshilik koʻylagi-la almashtiraman.

Ikkinchisi, umidsizlarda umid, ishonchsizlarda ishonch uygʻotaman.

Uchinchisi, barchaning koʻnglini shod etib, baxtli yashashga, oʻqib, izlanishga undayman.

Mim xayolga toldi. Bu ishlarni qilishga vaqti, umri yetarmikan? Vaqt lahzaga teng. Uning mohiyati – mangu harakat. Hayot kurash demakdir. Demak, istasa albatta hammasini tez va aʼlo uddalaydi.

* * *

Mim sahar chogʻi oʻrmon ahliga tashakkur bildirib, odamlar dunyosiga kirib bordi. U oʻzini koʻrinmas holga keltirib, gavjum hayotni donishmandlarcha kuzatdi va changʻi uchayotgan bolalarga maʼyusgina boqib turgan qizchani koʻrib qoldi. Shu zahoti qarotlarini yashirib, goʻzalligini koʻrsatib, yam-yashil multirab turgan koʻzlar yoniga yaqinlashdi.

– Isming nima? – soʻradi farishta qizchadan.

– Oygul.

– Nega bu yerda bir oʻzing oʻtiribsan?

– O‘qituvchim hov narida. Men chang‘i uchishni istamayman, tomosha qilmoqchiman, xolos.

– Qorbo‘ron o‘ynashni-chi, istaysanmi.

– Dadam bilan qorbo‘ron o‘ynardim. Ularni sog‘indim. Faqat dadam bilan o‘ynashni istayman, – boshini egib oldi Oygul. Uning ovozi tinayotgan tomchilar singari bo‘linib, qaltirab chiqdi.

– Hozir ular qayerda?

– Dadam vafot etdilar. Oyim ishda. Dadajonimni sog‘indim. Bu so‘zni ko‘p-ko‘p takrorlashni istayman. Afsus, ular bizni tark etdilar.

– Hecham-da. U hamma vaqt sen bilan. O‘lmoq bu ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq, xolos. Ko‘ngillar aslo bir-birini tark etmaydi. Vafot etganlarni yuragimizda asrashimiz, ularni har dam eslab turmog‘imiz zarur. Shunda ularning yoningda ekanliklarini his etasan.

– Nahotki...

– Ha, shunday. Ko‘zlaringni bir zum yumgin-da, ajoyib, aziz xotiralaringni yodga ol, otang taftini his etib, ovozini, seni chaqirishlarini esla.

– Sizni juda yaxshi ko‘raman, – past ovozda takrorlardi qizaloq ko‘zlarini yumgan holda. So‘ng yuziga tabassum yugurdi. Ular birga uzoq o‘ynashdi. Oygul qorni qo‘lga olib, osmonga otardi. Oq parchalar qayta ustiga tushganida u ko‘zlarini yumib, otasining taftini his eta boshlardi. Bu usulni Mimning o‘zi o‘ylab chiqqan. Chunki u ham dadasini sog‘inardi. Har gal o‘n olti yoshga tezroq klib, qadrdonlarini tezroq ko‘rishni istardi. U Oygulga ham bu haqida aytib, qizchanning dil bog‘ida xuddi boshqul urug‘ini ekdi. Bir paytlar so‘lgan atirgul qayta bo‘y chiqardi.

“Bu dunyoda hech kim baxtsiz, nochor, ilojsiz emas. Faqat inson bolasi bu narsaga o‘zini ishontirib qo‘yadi, xolos. Oллоh taqdirni ularning qo‘llariga berganini ba‘zan unutib qo‘yishadi...” – nogoh barglar sasiday mulohazalarni aytdi Mimning ichida kimdir. Bu uning qalbi edi.

* * *

– Nima xizmat? – deb so‘radi yozuvchi va shoir Mimdan ularning saroyiga dabdurustdan qadam ranjida qilganida.


– Nima to‘g‘risida yozayapsizlar?

– Shuni bilmoqchimiding? Biz “Hayvonot olami ertaklari” degan asar yozmoqchimiz. Shuning uchun butun yer yuzidagi kasbdoshlarimiz bilan birga yig‘ilganmiz.

– Menda shu xususida yangi fikr bor. Shuni siz aziz va maftunkor so‘z sehrigarlariga aytgani keldim. Keling, jonzotlarning xususiyatlarini o‘zgartiraylik. Ya‘ni, tulki ayyor emas – mehribon, bo‘ri – dono, silovsin, arslon – qalbi pok, yumshoq bo‘lsin. Shunda bu ertak kitobi o‘qishli, dilga yaqin ijod mahsuli bo‘ladi.

– Ajoyib, – qarsak chalib yuborishdi ijodkorlar. Bu yangilikni yer yuzidagi barcha ijod kishilari eshitib hamda tushunib oldi va yangi yilgacha bitkazishga kelishib olindi.

“Olam o‘zgarishlarga boy. Ko‘rib turganimiz – tabiat ming xil tuslarni o‘zida jo etib, ayrimlarini yangilatib, bizgacha yetib kelgan va o‘zgarishlar ila yurib boradi” – shaxsiy kundaligiga yozib qo‘ydi farishtamiz.



Farishta Mim peshtoqiga “Mehribonlik uyi” deb yozib qo‘yilgan bino ichiga kirib borib, bolalarning nelarnidir shivirlashayotganini payqadi. U bolalar tomonga odimladi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi ularning biridan.

– Akbar oyimga ketaman deb turib olgan. Gazetada bir aktrisaning ko‘rib qolib, “Bu mening oyijonim, unga boraman”, deb xarxasha qiladi doim, – dedi bolakay, keyin qo‘shib qo‘ydi.

– Mening oyim bugun keladi. Kecha kelaman degan ekan-u, ishi chiqib qolibdi. Buni tarbiyachilar aytishdi.

Mim ko‘zyoshlarini zo‘rga tiydi.

– Opajon, siz dadamni taniysizmi? Ularga ayting istirohat bog‘iga men bilan borsinlar. U yerda-chi, otasi borlarga halinchakda uchish uchun joy bo‘shatib berishadi, – yalingansimon aytdi Nargiz ismli qizaloq.

– Albatta aytaman, – Mimning bo‘g‘ziga nimadir tiqildi. Bolakaylarning har biri unga oila a‘zolari borasidagi iltimoslarini aytishar va va‘da berishini so‘rashedi.

– Sen qayoqqa? – savol berdi farishta sumka ko‘tarib olib tashqariga otlamayotgan qizchadan.

– Hozir oyim va dadam kelib, meni olib ketishadi, – javob berdi qizaloq va sovuq bo‘lsa-da, yo‘lidan to‘xtamadi.

– U doim shunaqa. Ismi Malika. Uni chaqaloqligida eshik ostiga tashlab ketishgan. Ismini Sojida opa qo‘yganlar. Esini tanibdiki, o‘zini tashlab ketishgan

joyga borib, qarindoshlarini kutadi. Ikki soat o'tar-o'tmas, qaytib kelib yum-yum yig'laydi. Men ulg'aysam, unga ota-onasini topib beraman.

– Bu niyatni malikaga aytib qo'ysang bo'lardi.

– Xo'p bo'ladi.

– Opajonim, – Mimning tizzasiga boshini qo'ydi olti yashar Anvar, – dadamga yetkazing, anavi sotib olgan oyisini qaytib do'konga topshirsin. O'z onamni u dunyodan olib kelsin. Men haqimda aytsa, oyim bu dunyoga kelishga rozi bo'ladi, – iltijo ila farishtani quchoqladi bolakay.

– Qani, har biringiz o'z karavotingizga o'tirib oling. Mana shunday, yashanglar. Birgalashib Yaratgandan yangi yilgacha ota- onangizni qaytarishini so'raymiz, – chorladi mitti farishta.

– Ey xudo, yangi yilni dadam va oyim bilan birga nishonlay, – iltijo qila boshladi murg'ak qalblar.

– Rostdan ham niyatimiz ijobat bo'ladimi? – so'radi Nargiza. Kichkintoylarning diqqati Mimga qaratildi.

– Agar chin yurakdan istaklaringizni bildirsangiz, niyatingizga yetasiz. Toza va ezgu orzular albatta ushaladi. Yaxshi kishilarning pok nafasidan chiqqan har qanday so'z tangriga yetib boradi, – ishonch bilan so'zladi farishta.

Beg'ubor mittivoylar qo'llarini duoga ochib, sidqidildan orzu qila boshlashdi. Mim ularning chehrasida o'ziga bo'lgan ishonchni va mehrga bo'lgan tashnalikni payqab, qaytib ko'rinmas farishtaga aylandi hamda ustoz Quyosh tomon ildam uchdi. Bolakaylar farishtaning gaplarini binodagi do'stlariga yetkazishdi.

Birgalashib Yaratgandan umid qila boshlashdi va hatto yetimxonadagi chaqaloqlarning ham ota-onasi topilishini soʻrashdi ular.

* * *

– Xoʻsh, nechuk qadam ranjida qilding? – Mimning oldiga shirinlik qoʻya turib dedi Quyosh.

– Ustoz... haligi, men bolalar uyidagi jajjilar ota-onali boʻlishini istayman. Biroq fursat oz. Yangi yilgacha ular oʻz uylarida boʻlishi lozim.

– Nimalar deyapsan. Bilaman, bulutday oq qalb egasisan. Ammo olamdagi jamiki kamchiliklarni tuzata olmaymiz. Bari oʻz holicha boʻlishi darkor.

– Esingizda boʻlsa, bizga bir gap aytgandingiz, “Moviy ot uch tuygʻudan yaratilgan. Umid, Ishonch, Ezgulik. Biz uning avlodimiz, udek boʻlmoqqa intilish – burchimiz”. Xoʻsh, qoʻldan kelsa jonni qurbon qilmaymizmi, aziz insonlar uchun. Nega bolalar uyidagi farzandlar mehr bulogʻiga koʻmilmasin. Ularning moʻltirab turgan koʻzlariga nazar solsangiz edi...

– Men ham achinaman ularga. Ammo xudo har kimning oʻziga insof bersin.

– Yoʻq. Achinish bilan ish bitmaydi. Qoʻlimizdan keladi-ku, chetda turishimiz nomardlik.

– Maqsadingdan qaytmaydiganga oʻxshaysan. Buning bir iloji bor-u, katta qurbonlik talab etadi.

– Aytavering.

– Sen bolakaylarning baxti uchun oʻz mansabingdan voz kechasan. Yaʼni koʻkdagi emas, yerdagi farisbtaga

aylanasan, shuningdek, bir umr oila ahzolaringni ko'rolmaysan. Nahot o'shalarni deya o'n besh yil kutgan ota-onaning quchog'iga qaytishdan voz kechsang...

Mimning vujudida titroq uyg'ondi. Negaki, birovlar baxtini deb ham vatanidan, ham uzoq yillar ko'rishni istagan jigarlaridan ayrilishi shart. Qaniydi, hammasi silliq kechib, borliq ezgulik, muhabbatga to'la bo'lsa. U bir gapni yodga oldi. "Yaxshilik amaldagi ezgu ish demak. U to'g'risida va'z o'qimoq oson. Lekin hayotda bir narsani yo'qotib, uni bajarish shunchalar og'ir". Nega bizning farishta ahillikni, mehr-muhabbatni, baxtli yakunni yoqtiradi. Nahot, olamni borligicha qabul qilmoqlik mushkulot tug'dirsa. Moviy ot o'zidan ko'ra o'zgalarni baxtli ko'rishni istagan. Mim esa uning avlodi.

– Roziman. Buni qanday amalga oshiramiz? – uzoq sukutdan so'ng og'iz juftladi qahramonimiz.

– O'zing nima deysan?

– Moviy otning "Ezgulik saltanati" nomli asarini har bir eshik tagiga qo'yib ketamiz. Uni o'qigan insonlar yuragidagi vijdon va mehr ko'zi ochilib, ularni yaqinlari tomon olib boradi. Sezayapman, bu buyuk va sehrli asar o'z kuchini namoyish etajak.

– Rejang a'lo. Biroq oilangga sen haqingda nima deyman. – Millionlab go'daklarning baxti bir farishta baxtidan ustunroq.

– Seni juda yaxshi ko'raman, qizim, – yig'lab yubordi Qo'yosh. Farishta ham duv-duv ko'zyosh to'kishdi. Axir endi uning baxti to'kis bo'lmaydi, aslo. Afsus, momiq bulutlarda sayr qilishlar, ularni urishtirib, chaqmoq deb atalmish taqinchoqlarni yutib olishlar o'tmish

sahifasida muhrlanib qoladi endi. Yerdagi farishtalar uni pisand qilmay, past nazar birla qarashsa-chi, unda kimga suyanadi? Muallimi Quyoshni-da yaqindan ko'ra olmaydi bechora Mim. Nimalar qilib qo'ydi-ya. Yo'q. U yaxshi ish qildi. Haqiqiy jasorat bu.

* * *

Bugun yangi yil. Shov-shuvli, notabiiy kun. Negaki, dunyodagi hech bir yetimxonada bolalar qolmagan. Ularning barchasi ota-onasi bag'rida, shod va xurram. Ba'zi Oygulga o'xshagan bolalar qadrdonlarining yuragini his etyaptilar.

Jajji Mim kasalxonaga borib, u yerda davolanayotgan bemorlarga shunday dedi.

– Bugun eng ajoyib bayram. Uydagilaringizning esa ko'ngli nimta. O'zingizga ishonib, tetik bo'lib xonadoningiz tomon yura boshlang...

Olamda bari o'zgarib ketmoqda. Sevgi, ishonch, yaxshilik isi har bir kishidan sezilib, ufurib turibdi. Kasalxonalar, yetimxonalar, qamoqxonalar bo'm-bo'sh. Chunki oldin aytib o'tilgan, uch buyuk tuyg'u qalblarga jo etilgan.

* * *

Kim-kim, Moviy ot ham Mimni uchratmoqchi. Mim daryo bo'yida ko'kka tikilib, yum-yum yig'lardi. Bir-biriga teskari o'ylar uni hech qo'yib yuborishi kelmas, sog'inch ko'zlarida yashirinib yetardi.

– Jajjiginam Mim, – yoqimli ovoz eshitildi farishtaning orqasidan.

- Moviy ot, - tili kalimaga aylanmay shivirladi Mim.

- Qilgan yaxshiliging tahsinga loyiq. Hayoting mazmunidan, shodligingdan kechib, odam bolasiga farishtalarga xos hislarni mujassam etolganing buyuk tarix. Men sen bilan faxrlanaman. Yur, falakka chiqaylik. Buyuklar o'z ilmlarini qolganlarga o'rgatishlari joiz, - Mimni samoga boshladi Moviy ot. Mim ota-onasi, ona yurti va do'stlarini ko'rib shunchalar quvondiki, buni tasvirlash emas, yolg'iz his etish mumkin. U chinakam baxtli edi. Zero, sohira qalb egalarigina Moviy otni uchratishlari, buyuklik cho'qqisini zabt etishlari qayd etilgan bo'lsa, ertakda yashiringan sirni topishga urinib ko'rsin. Sizlarga bir gapni aytishni unutib qo'yibman. Bizning Mim vazifalari va rejalarini ado etgachgina o'z-o'zini anglay boshlagan, o'rmonga borib "Hayvonot olami ertaklari" kitobini u yerdagi do'stlariga yangi yilda sovg'a qilgandi. O'ylaymanki, bu fikrlarimdagi jumboqlarni yechib, nega eng so'ngida aytayotganimni anglab yetasiz. Shunday qilib, Mimning hikoyasi nihoyasiga yetdi...



FARISHTA MIM VA VENERA SHAHZODASI

Mim ko'chadagi shovqin-surondan uyg'onib ketdi va yuz-qo'lini yuvib tashqariga chiqdi. U farishtalar chehrasida har kungi mamnuniyat va shodlikni emas, qayg'u hamda o'kinchni ko'rardi. Ma'lum bo'lishicha, bu iztirob sababi insonlarning qalbida armon ko'payib, yovuzlik nish urganidan ekan. U hayratda edi. "Qiziq, kechagina bari to'liqsiz dengiz misoli silliq ketayotgandi. Endi esa oldingi hayot go'yo bir tush. Agar bu to'liqin tinmasa, jamiki farishtalar Quyosh nurlari tunda samoni tark etgani kabi bir umrga yo'qoladi. Dunyo yomonlik iskanjasida qolib, zulmatdan hayot qasri quriladi. Shukronalik ne'mati aytilmagach, Ollohning qahri kelib, insonlarni aslo kechirmaydi. Xullas, hammasi tugaydi. Nimadir qilish, falokatdan qutulmoq yo'lini izlash zarur," – o'ylardi Mim. Uning yagona umidi mo'ysafid farishtalardan edi. Shu tufayli bugungi, ular bilan bo'ladigan uchrashuvda nimalarni so'zlashi kerakligini bir-bir esga oldi...

Uzoq kutilgan uchrashuvga buyuk farishtalar tashrif buyurishgandi. Bu yerga Moviy otning ham kelgani ahvolning nechog'liq murakkab ekanligini isbotlardi. Hamma bir-bir so'zga chiqdi va nihoyat so'z navbati Mimga yetdi.

– Barchamiz nimadir qilishimiz kerak deyapmiz-u, chorani topolmayapmiz. Insonlar ko'ngli bu orada

armonga to'lib ketyapti. Bir ayolning chet elga ketib qolgan o'g'lini kutib ko'zlarida yosh qolmadi. Yana bir qiz halokat tufayli vafot etgan yigitini hali hamon kutib, yo'llariga nigoron qaraydi. Uch nafar onadan yetim qolgan bolalar o'gay ona qo'lida suvsiz qolgan gul singari so'lib bormoqda. O'gay ona garchi bemehr bo'lmasa-da, juda befarq. Chunki u ham o'z bolasi bo'lishini istaydi, qalb qo'rini jonajon farzandlariga berishni xohlaydi-yu, bolasi yo'q, ahvol chatoq, masala chigal. Moviy ot, siz biror yo'lini topgandirsiz, ehtimol. Bizga ayting, mushkul bo'lsa-da, shu ishni bajaraylik.

– Mim, yillar o'tgani sayin tarix sahifalarida yangi qahramonlar o'rin egallaydi. Balki, taqdirimizda bu voqealar bitilgandir, balki hayotimiz nihoyalab qolgandir. Yoxud o'zga qahramonni asrimiz kutayotir...
– dedi Moviy ot.

Uning so'zlari farishtalarni lol qoldirib, xayollarini puchga chiqardi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Mim uch kun ularni halokatdan qutqara oladigan qahramonni kutdi. Biroq na biror qahramon paydo bo'ldi, na biror iloj topildi. Farishtalar taqdirga bo'ysunishni ma'qul topib, afsus va nadomatdan boshqasiga yaramay qoldilar.

* * *

Mim kutubxonada kitob o'qish bilan vaqt o'tkazardi. Mimdan boshqa hech zot ko'rinmas, hatto oyoq tovushi ehitilmasdi. U yonida turgan kitobni yopdi-da, o'ygini to'ldi. "Insonlar tashqi olam tuyg'ulari ila qabul etib, aqli birla anglashga qodir ekan, nechun har

gal bilib yo bilmay yovuzlik tomon qadam tashlaydi. Yoinki, yovuzlik hurmatga sazovor bo'lolmasligini, faqat qudrat, yuksalish, ezgulik tuyg'ulari uyg'onishiga bir to'siq ekanligini bilishmaydimi... Axir Olohd ularga borliqdagi go'zal sayyora – Yerni hadya etgan. Undagi tabiat bilan totuvlikda yashamoqlik, ezgulik bilan yakdil bo'lmoqlik emasmi? Armon – baxtsizlik kaliti. Demak, baxtsizlik yomonlikka undar ekan-da. Odamzod baxtsizlikdan baxt tomonga yurishi, hayotdan armonlarni emas, orzular va quvonchni saralab, yuragiga joylashi lozim. Ha, kimdir ularga bu to'g'risida aytishi joiz, – shivirladi farishta.

– Ha, kimdir, ammo kim, – qaytardi birov. Mim atrofga qaradi.

– Janob Mix. Sizni ko'rganimdan baxtiyorman, – shodlandi qiz.

Janob Mixning ikkinchi nomi – sehrli Mix. Uning tashqi qiyofasi devorga qoqiladigan boshqa mixlardan uncha farq qilmaydi. Biroq tashabbuskorligi, mehnatsevarligi bilan ulardan keskin faqrlanadi. (Ulardek bir joyda turmasdan olam kezadi, barchaga yordam qo'lini cho'zadi.

– Siz sayohatda emasmidingiz. Dadam men tug'ilgan kundan bir kun keyin sarguzasht izlab o'zga yurtlarga ketganingizni aytgandilar, – deya jilmaydi Mim.

– Sen tug'ilgan kun, buyuk tarix tug'ilganini sezgandim. Ammo unga yo'l ko'rsatishni o'ylamabman. Men senga yo'l ko'rsatgani keldim. Kelganimni sendan boshqa hech kim bilmasin.

– O‘n besh yoshimda qilgan ishimni buyuklik deb atasangiz, adashasiz. Siz o‘ylagan buyuk qahramonmasman.

– Farishtalar o‘lkasi insonlar tubanlashgani sayin zaiflashib boradi. Farishtalar esa zarraga aylanib, nobud bo‘ladi. Men sehrli mixman. Vazifam – qahramonlarni kashf etib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoq.

– Xo‘sh, men nima qila olaman?

– Hozirgina o‘ylagan fikrlaringni insoniyatga yuzma-yuz turib ayt. Faqat farishta libosida, o‘z qiyofangda.

– Ularning olamiga kirgan zahotim qanotim ham, farishtalik libosim ham qaytishimga qadar ko‘zga tashlanmaydi-ku.

– Bunga sabab ikki o‘rtadagi belgilangan nazorat, chegara. Shu chegarani sindirishing, nazoratni buzishing shart.

– Bu axir qonunbuzarlik.

– Tushun, shunday qilmasang, sizlar ham, ular ham yo‘q bo‘lasizlar.

– Nega endi men?

– Chunki...

Shu pallada eshik orqasidan ularning suhbatini eshitib qolgan farishtalar malikasi Nun yurib keldi. O, bunchalik latofat unga qayondan. Husn tarozisining birinchi pallasiga dunyo suluvlarini qo‘ysangiz-da, ikkinchi palladagi Nun ulardan ustun keladi. Nozik qanotlari kamalak matosidan ishlangan bo‘lsa, nurdan yaratilgan sochlariga yulduzlar sochto‘g‘nag‘ich. Ko‘z-qoshlari ishq sharsharasiday fusunkor va benazir.

Ustidagi jimjimador libostonggi shudringtomchilaridan tikilgan. Poshnali tuflisi esa bahor tongidagi maysalar isidan dunyoga kelgan.

– Salom, sarguzasht qiroli sehrli Mix va jasur Mim. Bu yer mening ham jonajon makonim. Endi kirishga shaylanayotganimda, gaplaringiz qulog‘imga chalindi. Garchi birovning so‘zini eshitish odobdan bo‘lmasada, eshitdim. Mim, sen Mix aytgan ishni bajarishing kerak. Bu bilan zora, hayotimizni qutqarib qololsang.


– Albatta, malikam. Avval bu to‘g‘rida aholiga xabar qilaylik.

– Aslo, Ishlar ko‘ngildagidek hal bo‘lgach, ular xabar topishadi. Ayni paytda uchalamizning sirimiz – shu. Moviy ot bu haqida bilmagani ma‘qul.

– Roziman. Vazifamni qay tarzda amalga oshiray?

– Sen Venera sayyorasining shahzodasi Shohrux bilan uchrashib vaziyatni tushuntir. Yolg‘iz o‘zi bilan gaplash...Uning qo‘lidagi uzukni taqib odamlar yoniga tashrif buyursang, qanotlaring va bor farishtalarcha ziynatlaring ularga ko‘rina boshlaydi. Shunda dilingdakilarni to‘kib sochasan. Bilib qo‘y, Venera shahzodasi – Yer va Farishtalar saltanati orasidagi chegara. Uning uzugi – o‘rtamizda o‘rnatilgan nazorat. Uzukni olganing zahoti chegara va nazorat sening qo‘lingga o‘tadi. Sehrli Mix sendan yordamini ayamaydi. Iltimos, aqling tuyg‘ularingdan ustun kelib, ularni boshqarsin. Xalqing hamda odamzod uchun shu vazifani bajarishga vada ber.

– Vada beraman, malikam.



Farishta Mim kapitan Zuhra rahnamoligida “Arenev” kemasida Venera sayyorasi tomon suzardi. Kema suzarkan, bulutlar uning shabadasidan qoʻrqib, har tomon chirpirak boʻlib uchar, kometalar qush misoli tezlik ila parvoz aylardi. Koinot rang-barang shakllar, biz bilmaydigan turfa jismlar bilan toʻla edi. Mim kapitan yonida – palubada turib, bu goʻzallikdan bahramand boʻlar, yashashni istardi. Shu istak, shu maqsad unga dadillik baxsh etib, xushmanzara olam yurak-yuragini zabt eta boshlardi.

– Mim, hov anovi Uran sayyorasi. Bilsangiz, u shunaqangi qoʻrski, tasvirlashga til ojiz. Mehmondorchilikka borganimda sovuq muomalasidan rosa xafa boʻlganman, – dedi kapitan.

– Ehtimol, uning soʻzlashuv tarzi shundaydir...

– Ehtimol. Ustozingiz Quyoshning qoʻshnisi Merkuriy menga yoqadi. Juda chaqqon, sermulozamat ayol – sayyora. Biroq qari Yupiterning, garchi eng keksa boʻlsa-da, zarracha aqli yoʻq. Uning bagʻrida doim boʻron, urush.

– Gʻalati... Ularning har birida xarakterlar takrorlanmas.

– Albatta-da... Siz qaysi oʻquv yurtiga kirmoqchisiz?

– Venera davlat tarix oliygohiga.

– O, juda zoʻr-ku. Ishonaman, albatta kirasiz.

– Xudo xohlasa... Bu sayyoraning fusunkorligini...

– Man bizing Venera, U muhabbat, otashin sevgi malikasiga oʻxshaydi. U yerdagi aholi ham Venera kabi

nozikta' b va chiroyli. Bu yer ochilmagan gul, g'uncha.

– Haqiqatan ham.

– Salom, Venera, Quchog'ingga kirishga ijozat ber. Xalqing yangi mehmonlar bilan tanishsin.

– Marhamat, – dedi Venera.

Veneraning tashqi ko'rinishi nihoyatda nafis, shu bilan birga qip-qizil, go'zal. Uni ham Yerga o'xshab qalin bulutlar qatlami o'rab olgan. Biroq atmosferasi karbonad angidrid gazi va sulfat kislotadan iboratligi uchun oddiy insonlar kira olmaydi uning sirli bag'riga. "Arenev" kemasi sayyora ichiga kirarkan, palubadagilarning nafas olishi qiyinlashib bordi. Jazirama issiq hamda sahro tuproqlari holdan toydirdi. Mashhur "Arenev" qum dengizida kunduzgi. 470°C haroratda suzib bormoqda. Qumlar ila o'ralgan sahroning ikki tomoni vulqon otilishidan vujudga kelgan xunuk tog'lar bilan o'ralgan. Tog'lar giyoh unmas bu cho'lni bezash o'rniga, badbashara yuzini yanada sovuq qilib ko'rsatardi. Lekin bu uzoq davom etmadi. Tasvirlangan manzara nihoyasiga yetib, xuddi teatrdagi parda ochilgan kabi suluv olam chehrasini ochdi. Atrof yam-yashil bog'lar, ko'm-ko'k okean tasviriga almashdi. Qaysar tongning sof va musaffo havosi borliqqa hayot baxsh etayotgandek. Kapitan Zuhra boshchiligidagi kema afsonaviy Nilay okeanidan suzib o'tib, Venera shahzodasi huzuriga oshiqmoqda. Suv dam tepaga ko'tarilib, shoxlik qilar, dam pastga tushib, "ichimdagini top" deganday jim qolardi...

Mim Venera shahzodasi bilan uchrashuvga tayyorgarlik koʻrardi. Saroyga joylashib olgandan soʻng unga xuddi shu fursatda Shohruh kechki ovqat payti ularni oʻz xonasida kutib olishini bildirishdi.

– Janob Mix, unga nima deymiz. Gapni nimadan boshlaymiz?

– Yoʻq, men emas. Sen u bilan gaplashasan.

– Aslo.

– Boraqol, boʻl, qizim.

Mim ilojsizlik domida qolib, oxirgi bezak – ziragini taqdi va tashqi koʻrinish hakami – koʻzguna boqdi.

Farishta juda goʻzal koʻrinmasdi hech. Ammo bugun suv tomchilardan marvarid halqa hosil qilib tikilgan koʻylagi bugʻdoyrang tanasiga hamda Quyosh bagʻrida koʻp yurib qizargan loʻppi yuziga bagʻoyat yarashgan. Atirgul ila bezatilgan tekis uzun sochlari xuddi uni hammadan qizgʻanayotganday toʻsishga urinardi yuzlarini. Donishmandlarcha ziyrak koʻzlari, qayrilma va qalin qoshlari uni shu zamon insonga oʻxshatib qoʻydi. Kim bilar, ehtimol ajdodlari odamzod ila qarindoshdir. Axir yaxshi kishilarni farishtaga qiyoslaydilar-ku.

U derazadan Oyga tikilib qolgan Shohruhdan kimshga ijozat soʻradi. Shohruh unga oʻgirilgan zahot, ajabo, birdan osmon yuzi qoraga boʻyalib, momaqaldiroq gumburladi, atrofni nurafshon aylayotgan shamlar oʻchdi. Mim orqaga tisarildi. Shahzoda tabiatning ajib odobsizligidan hayratda

qoldi. Ularning ikkovi ham tez o'ziga kelib, shamlarni yoqishdi va stol atrofiga kelib o'tirishdi. Shunda Mim shahzodaga sinchiklab nazar soldi. Baland bo'yli, baquvvat, sohibjamol. Jigarrang sochlari, qaraganda vujudingni titratib yuborguvchi Moviy otnikiga o'xshash ko'm-ko'k ko'zlari, nafis lablari ustidagi jaji xol, sochlari ostida yashiringan qoshlar va oppoq yuz – bari betakror. Bizning farishta o'yladi. “Demak, har qaysi shahzoda ham, malika ham mukammal qilib yaratilar ekan-da. Malika bo'lib tug'ilsaydim...”

Shahzoda mayin tabassum qildi-da:

– Muhimi tashqi ko'rinish emas, qalb go'zalligi. Olloh har kimga mos chehra yaratganini unutmang. Yana bir gapni eshitgandim, go'zal bo'lib emas, baxtli bo'lib dunyoga kelmoq zarur, – dedi. Mim taajjub-la boqdi unga. Chunki fikrlarni o'qiy biladigan shahzoda – farishtani ilk bor ko'rib turishi edi.

– Men maqsadga o'ta qolaman. Oldingizga tubanlashib borayotgan insoniyatni to'xtatish, shuningdek yo'qolish arafasida turgan farishtalar hayotini asrab qolish uchun nazorat sanalmish uzugingizni olib, Yer yuziga o'z holimcha tushish maqsadida keldim, – o'rtadagi o'ng'aysizlikni buzdi Mim.

Shahzoda jiddiy tortdi, rangi quv o'chdi.

– Nima... Bu xayolot.

– Shunday qilishim kerak. Aks holda...

– Bo'ldi, tushundim. Avval sizni Veneraga sayohat qildiray. So'ngra xayrlasharmiz...

Mim tez-tez qadam tashlab chiqib ketdi. Uni yana savollar azoblardi. Nega Nun unga “Tuyg'ularingni

boshqar, bu haqda Moviy ot bilmagani ma'qul", dedi. Olijanob Shohruh uzugini berishni istamadi. Bularning barchasi g'alati.

– Janob Mix, uxlamayapsizmi? – sochlarini taray turib qutichadagi Mixga yuzlandi farishta. Mixdan javob qaytmadi. U o'rnidan turib, qutichaga mo'raladi. Unda maktubdan o'zga hech vaqo yo'q edi. Maktubda shunday yozilgandi.

“Qadrli Mim. Seni Veneragacha eson-omon yetkazdim. Manzilim shu yerda nihoyaladi. Bilib qo'y, qizim, kimdandir ayrilsang-da, hayot tugamaydi. Har soniya qaytadan yashashing, qaytadan hayot qurishing mumkin, Mix”.

Mim turgan joyida qotib qoldi. Unga yana va yana savollar orom bermasdi.

* * *

Tunda, yulduzlar bag'rida, besarhad koinot quchog'ida Shohruh va Mim uchib yurishardi. Fazoda har bir yorug' nuqta – bitta yulduz. Ular sochilib yotgan yulduzlarning to'dalari – galaktikalar oralab zavq-shavq ila uchishyapti.

– Hayot go'zal. Unda yashashga haqqimiz bor-ku, axir. Go'zallikni asrab qolishga menga imkon berilgan ekan, uni albatta asrab qolaman, – qat'iy dedi Mim.

– Bir zum umr, hayot to'g'risida gapirmang... Yashisi, galaktikalar musiqasi ostida raqsga tushing, men bilan.

Sokin musiqa yangradi. Rang-barang yulduzlar naqshlar hosil qilib, musiqaga mos harakatlanardilar.

Shahzoda va farishta qiz ularni ko'rib shodlanardilar. Tanho yurak so'zlaydi dam-badam bunda. Ko'zlar esa muhtoj iqrор bo'lishga... Bepoyon ko'ngil sarhadlari hozir torlik qilar, xayol bir-birlarini o'ylashdan boshqasiga imkon bermasdi.

* * *

Shohruh ertasi kuni Mimni xotira maydoniga olib bordi. Veneradagi xotira maydoni umuman boshqacha, yam-yashil o'tloq markazida ulkan, qadimi daraxt qad rostlagan. Daraxtning har bir yaprog'ida vafot etgan farishtaning ismi, kasbi, qilgan yaxshiliklari yozib qo'yilgan. Nega deb o'ylarsiz. Gap shundaki, farishtalar o'lgan zahoti zarraga aylanib g'oyib bo'lishadi, ularni tuproqqa ko'mmasdan, faqat nomlarini xotira daraxtining bargiga bitadilar. Kuzda va qishda daraxt yaprog'i ko'zga tashlanmaydi. Ammo bahorda yana paydo bo'lib, vafot etganlarni yod etishga undayveradi.

– Agar men vafot etsam, ismimni eng pastdagi bargga o'yib yozing.

– Ehtimol men sizdan ilgariroq hayotdan ketarman, – kulib qo'ydi Mim.

Shohruh kulmadi, yelka qisib qo'ydi, xolos.

– Nega endi pastdagi yaproqqa? – o'ylanib turib dedi farishta qiz.

– Shunda meni tezroq unutasiz. Axir pastda joylashgan barg unchalik ko'rinmaydi.

– Unutish bargning pastda yoki tepada joylashganiga emas, qalbda ajratilgan o'ringa bog'liq. Ammo

unutishimni istarkansiz, shundog'am unutaveraman,
– arazlagan kabi shahzodadan uzoqlashdi Mim.

* * *

- Mana uzuk. Olamni qutqara qoling.
- Rahmat. Dunyoni yolg'iz men emas, siz ham qutqaryapsiz. Farishtalar sizni-da olqishlaydi.
- Ehtimol.
- Hali, ko'rib quvonasiz.

Shohruh Mimdan ko'zlarini olib qochdi. Qizning qo'lga xat tutqazdi-yu, xayrlashmay ketaverdi. Mimning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. “U meni umuman yaxshi ko'rmaydi. Men esa...” Farishta xatni ochmoqchi bo'lgan edi, yuzidagi yozuvga ko'zi tushdi. “Yer yuzini, shu bilan birga, farishtalarni halokatdan qutqarib qaytganingizdan keyin, maktubni o'qing”.

* * *

Mim uzukni barmog'iga taqib olib, Yer kurrasiga tashrif buyurdi. Bolalardan kattalargacha ko'chada sochlari yoyilgan, oppoq qanotli farishtani ko'rishga oshiqardilar. Insonlar uchun u bir mo'jiza, ishonib bo'lmas haqiqat edi.

Farishta ko'zlari ojiz mushtipar ayol oldiga keldi. Ayol nursiz ko'zlarini yo'lga qadab, chet mamlakatlarga ketib qolgan o'g'lini kutish bilan ovora. Farishtaning ko'ngli tez-tez ura boshladi. Chunki shuurida yigitning qayerdaligini aniqlagandi. U bir nafasda o'sha makonga tashrif buyurib, yigitni yoniga chorladi.

– Siz... farishtamisiz? – so'radi yigit salomdan so'ng.

– Ha. Bu qanchalik g'ayritabiiy ko'rinmasin, men farishtaman. Sizga yordamga keldim.

– Yordamga? Menda barchasi ajoyib. Oilam bor bu yerda, maoshim kattagina.

– Onangiz-chi? U bechoraning yuragi armon to'rlaridan kiyim to'qiyapti, sizni ko'rish umidida.

– Men ham validamni ko'rish ishtiyoqidaman. Ammo yuzim qora mening. O'g'rilik qilib, qamoqqa olindim. Chiqqach, bironing yuziga qarolmay, begona ellarda sargardon yurdim. Shu yerlik qizga uylandim, farzand ko'rdim. Ko'nglim hasratga to'la.

– Inson har vaqt xatosini tushungach, Olloh uni kechiradi. Boshqalarga hisob berish shart emas. Hayot mazmuni, farzandingiz, rafiqangiz, muhtarama validangiz va oila davrasida baham ko'rayotgan halol non-tuzingiz. Muhimi, to'g'ri yo'lni tanlay oldingiz. Bunga boshqalar ishonsin-ishonmasin – endi baribir.

– Tashakkur. Birinchi reysdayoq oilam bilan onajonim bag'riga uchaman.

Navbat tashqaridan xushro'y, ichkaridan ma'yus ko'rinadigan xonadonga yetdi. Bu yerda onadan yetim qolgan uch norasida hamda otayu o'gay ona yashardi. Ayol bolalarga ozor yetkazmasa-da, ularga befarq edi. U o'z farzandi bo'lishini istar, yuziga quvonch yugurishini orzu qilardi. Biroq tangri unda o'n yildan beri bola shodligini hadya etmasdi. Xullas, hovli oq-qora tasvirli fil'mlardagidek rangsiz, fayzsiz ko'rinardi.

Mimni ko'rgan ayol dovdirab qoldi. Negaki, farishtani umrida ilk bor ko'rib turishi edi.

– Men siz haqingizda bilaman, – gap boshladi farishta ichkari xonaga o'tganlaridan keyin.

– Unda nechun oldingiz keldingiz?
– Sizga yo‘l ko‘rsatgani. Sizlar farishtalardan ham ustunsiz. Aql-zakovatingiz, mehringiz – bunga dalil. Biroq qilgan xatolaringizning oqibati haqida biz sizni ogohlantirishga majburmiz. Uch go‘dak sizning mehringizga zor. Ularga ovqat pishirish, kirini yuvish onalik emas. Ona – hayot, mehr. U tunda Oy bo‘lsa, kunduz qalbdagi Quyosh. Ular sizdan onalik mehrini berishingizni va sizga onalik baxtini hadya etishni istashadi. Buni o‘ylab ko‘ring.

Mim ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, ayol o‘yga toldi. Ha, xudo unga onalik baxtini allaqachon berib bo‘lgan. U esa farzandlari hayotini yashnatmayapti...

Farishta harbiy xizmat tufayli boshqa yurtga borib, jangovar harakatlar chog‘ida halok bo‘lgan sevgilisini hali-hamon kutayotgan qiz yoniga kelib o‘tirdi.

– Uni qattiq sevarkansiz, nechun xotirasiga ozor bermoqdasiz?

– Bu nima deganingiz, farishtaginam...

– U sizning baxtli bo‘lishingizni istagandi. Insonga hayot bir marotaba beriladi. Umr – hikmat, uning ma‘nosini sinovlardan o‘tgach, anglaysiz. Bu hikmat kitobidan kerakli narsalarni anglab olish uchun berilgan vaqtni, kitobni ochmasdan, anduh chodiriga o‘ralib yoqib yubormang.

Qiz farishtaning so‘zlaridan go‘yo o‘ziga kelgandi. U olamga yig‘lab o‘tib ketish uchun emas, yorqin iz qoldirish uchun kelgan. Qiz ro‘parasidagi daraxt tagida birov uning kutayotganini payqadi. Sinfdoshi Anvar-ku.

Qiziq, qachon o'qishdan qaytibdi. Nahotki, darrov to'rt yil o'tib, u oliygohni tugatgan bo'lsa...

Mim Yer yuzida anchagacha qolib ketdi. U insonlarga oddiy so'zlar bilan gapirar, yuragini og'ir armon qora tuman misoli egallagan odamlar esa samimiy, kuyunchaklik birla aytilgan bu so'zlarni darrov tushunardilar. Ko'ngillarini chirmab tashlagan armon asta tarqay boshlab, o'rnini istak, umid, shijoat egallardi. Negaki, shuncha vaqt davomida qalb ko'zi bekilgan, hayotiy haqiqatlarni anglayolmagan yuraklar uyg'ongandi... Bolalar chinakam onali bo'lgan, ona o'z farzandini topgan, qiz esa turmushga chiqqandi.

* * *

Farishta Mim o'z vataniga qaytgach, barmog'idagi uzuk g'oyib bo'ldi. Sog'inch hali quchog'idan tashlamagan Mim buni payqamay, sevinch ila do'stlari, ota-onasi yonidan jilmay yashardi. Ammo bir necha kundan so'ng uzuk yo'qligini sezib qolgan farishta qiz malika Nun qasriga kirib bordi. U bo'lgan voqeani qo'rqinch hamda hayajon ila hikoya qilar, Nun esa borgan sari ma'yuslanardi.

– Mim, men senga kichik bir voqeani so'zlab beraman. Eshit. Buyuk Moviy ot Venera qirolichasiga oshiq bo'lib, unga uylandi. Shunda ularning farzandlari Shahzoda Shohruh dunyoga keldi va u farishta hamda inson o'rtasidagi chegara deb belgilandi. Voyaga yetgach, unga shu ikki o'rtadagi nazorat uzugi berildi. Agar chegara va nazorat buzilsa, shahzoda vafot etib, uzuk g'oyib bo'lishi darkor edi... Bu voqea ancha oldin

bashorat qilingan. Bilasanmi, Moviy ot o'g'li bilan faxrlanardi. U shu voqea ro'y berishini bilar, o'g'lining qo'rqmas, botirligiga ishonib xato qilmagandi, – dedi malika Nun.

Mim nima deyishni bilmay karaxt bo'lib qoldi. Yuragida kurtak ochishga ulgurmagagan shirin tuyg'ular, unutilmas bir necha kunlik xotira, u bilan o'tkazgan baxtli onlari qalbini olov bo'lib yondirar, kulini ko'kka sovurardi. Nihoyat, yodiga Shohruh yozgan maktub keldi va uni o'qishga tushdi.

“Avvalo, insoniyatni, farishtalarni qutqarib qolganingiz bilan qutlayman. Siz sira yig'lamang, Zero, minglab odamlaru parilar hayoti bir farishta hayotidan ustunroq. Shu ishni amalga oshirishga chog'lanmaganingizda, men sizni tanimagan, jasorat egasi ekanligingizni bilmagan va yana mening ham, sizning ham ishingiz tarix sahifalarida muhrlanmagan bo'lardi. Ishonaman, oydin kechalar taftimni his etib, muhabbat haroratini sezasiz. Buyuk tarixchi bo'lganingizdan so'ng Venera shahzodasining ilk muhabbati va u sevgan farishtaning jasorati, insoniyat hayotida bo'lib o'tgan turfa o'zgarishlar to'g'risida yozishni unutmang. Alvido”.

Mim ancha kun xonasidan chiqmay, nelarnidir o'yladi. Keyin Nilay okeani bo'yiga kelib chuqur nafas oldi. Shunda ko'ngli taskin topib, shivirladi:

“Nimaga dir yetishish uchun nenidir qurbon qilamiz. Ammo biz doim yo'qotganimiz, qurbon qilganimiz, mag'lubiyatimiz haqida emas, topganimiz, erishganimiz, chiqargan xulosamiz ila yashaganimiz

joiz. Shular asosida yasharkanmiz, qalbimizdan
ezgulik arimaydi va biz hayot mazmunini tuyamiz,
olg'a intilamiz.”

* * *

Faylasuflardan biri shunday degan ekan: “...Hayot
ezgulik va yovuzlikni o'z ichiga olgan bir ombor. Uni
yo ezgulik yo yovuzlik omboriga aylantiradilar”.

Aziz do'stim, kel, Farishta Mim va Moviy ot bilan
birgalikda hayotimizni ezgulik omboriga aylantiraylik.



KO'HNA BUXOROGA SAYOHAT

Nigora tarixiy romanlarni o'qishni, buvisining o'tmish haqidagi hikoyalarini tinglashni juda yaxshi ko'rardi. Ular eski shaharda yashaganlari bois atroflarida pastak hovlilar, kichik-kichik darvozalar bisyor. U har gal bu hovlilarga nazar solarkan, qaniydi, moziyga qaytsam-u, ajdodlarimni, Ko'hna Buxoroni ko'rsam deya orzu qilardi. To'g'risi Nigora shahri haqida mo'l bilar, har bir yodgorlik nechanchi asrda qurilgani haqida ham mahlumotga ega edi.

Do'kondan qaytgach, u shoshib bog'laridagi qadimiy majnuntol yoniga kelib o'tirdi-da, diliga tugib qo'yanlarini so'zlay boshladi: "Majnuntolim, senga biram havasim keladi. Sen buvimning onalarini, ehtimolki, buviyu bobolarini ham ko'rgandirsan. Ular ham mendek qoshingga kelib, dardlarini so'ylagandirlar. Bilasanmi, mening sochlarim, qopqora ko'zlarim katta buvimnikiga monand ekan. Men ularni sira ko'rmaganman. Sen esa, ularni kuzatgansan. Eh, katta bobom va katta buvimni ko'rishni qanchalik istayotganimni bilsang edi".

Nigora bobosi haqida ko'p yaxshi gaplarni eshitgan. U kishining Usta Sharofi taxta deb dong taratganlari, yetim-yesirlarga mehribonlik qilganlari, hatto bir yetimni farzand qilib olib, o'zlari kabi madrasalarda o'qitganlari haqidagi gap-so'zlar qulog'iga chalingan.

U soat to'qqizlardan o'tganda tom ustiga chiqdi. Samo marvarid misol yulduzlarga to'la. Oy nur

taratayotgan qimmatbaho tosh kabi ko'rinadi. Uning nurlari uzoqdagi Minorai Kalonga tushib turibdi. U esa barvasta qomatini ko'z-ko'z qilgan kabi diqqatni tortadi.

– Nigora, pastga tush, qizim. Kech bo'ldi. Endi uxlaymiz, – uning yuzidan o'pib chorladi onasi.

Bugun Nigora tong saharlab turdi va pastak hovlilar orasidan o'tib, Ark tomonga yura boshladi. Oftobning ilk nurlari uning boshi uzra endi taralayotgan dam edi. Shu pallada insonlar uyquda-yu, tabiat o'zining eng nafis ko'ylagini kiyib olganday. Kechasi bilan xudodan o'tmishga bir bora sayohat qilishni so'rab chiqqan qizaloq bu go'zal, hayratlanarli manzarani chiza boshladi. Sizga aytishni unutibman chog'i, Nigora usta qalamkash, ya'ni vatanining ruxsorini qog'ozga tushirishni sevadigan, go'zallik shaydosi bo'lgan yosh rassom edi. Uskunalarini did bilan o'rnatib, chizishga berilib ketgan payti qulog'iga g'alati ovozlar chalina boshladi:

– Kep qoling, op qoling, shirmoy nonlar.

– Shirin qovunlar.

Nigora atfarga sergak boqdi: yuziga chodira tortgan ayollar, chakmon kiygan va salla o'ragan kishilar.

– Men... Men... moziydaman, – asta shivirladi u. – Tezroq chopay, hozir katta buvimni ko'raman

U ildam qadamlar ila shahar oraladi. Bir zum to'xtab ortiga tabassum-la boqdi: salobatli madrasalarga talabalar kirib ketishmoqda. Bozorda esa savdo avjida. Savdogarlar ham, sotib oluvchilar ham xushmuomala. Goh-gohida sotuvchilar ham kulib, shukr deb qo'yishmoqda.

Qayerga boqsangiz, atrof to'la masjidu imorat. Kishining ko'ngli ko'tarilib, qalbi quvonchga to'ladi. Bilim, ma'rifat g'oyat qadrlanishi bilinib turardi.

Nigora yo'lini davom ettirib, o'z hovlilari oldida to'xtab qoldi. Eshikni ohista taqillatdi. Ichkaridan "Kim u?" degan tovush eshitildi.

– Menman, – so'zladi hovliqib sayohatchimiz.

Darvozani yosh kelinchak ochdi. Darvoza oldida kichik qizcha turganini ko'rib, yuzidan chodirasini olib qo'ydi.

– Sizga kim kerak? – so'radi ayol.

Nigora tili lol. O'sha ko'zlar, o'sha sochlar. Ha, u haqiqatan ham buvisiga monand.

– Ismingizni bilsam bo'ladimi? – bolalarcha soddalik bilan savol berdi qiz.

– Muslima.

– Buvijon, buvijonim, – quchoqlab oldi Nigora. Ayol kulimsirab, hech vaqoga tushunmay qizchani quchoqlab oldi. Shu payt ichkari xonadan qoshlari qalin, ko'zlari ma'noli kishi chiqib keldi.

– Buvajonim... tasvirlaganimdan ham ziyod dono ko'rinarkansiz, – pichirladi u. – Assalomu alaykum.

– Vaalaykum assalom, – qo'lini ko'ksiga qo'ydi yigit.

– Keling, uyda gaplashaylik, – so'z qotdi Muslima buvi.

– Men ham keta qolay, – xijolat bo'ldi Nigora. Yo'q, u faqatgina quvonganidan shunday dedi. Axir ularning yonida yig'lash yaxshi emas. – Menga do'st bo'lib qolishga vada bering, hiqillab yig'lab yubordi

qizchamiz. Yigit kelinchakka yupating, degan ma'noda qarab qo'yib, ichkariga kirdi.

– Albatta. Sizni hech unutmayman. Abadiy dugona bo'lamiz. Bu kumush bilaguzukning birini olib qo'ying, do'stligimiz nishonasi. Shoshmang, hech bo'lmasa ismingizni aytib keting, – qo'lidagi bilaguzukni yechdi ayol.

– Nigora, alvido... – U boshqa so'z deya olmay, yig'lab yubordi. Qalbi quvonchga to'liq: axir, buvisini ham, bobosini ham ko'rdi.

Niyatiga yetgan qiz Ark qo'rg'oni oldiga qaytib kelib, unga uzoq termuldi va quyosh endi ko'rinayotgan pallaga – XXI asrga qaytib keldi. O'tmishga sayohat qilganiga sira ishongisi kelmasdi. Biroq qo'liga yarashib turgan kumush bilakuzuk buni isbotlab turardi...



O'TMISHDAN HIKOYA

O'tmish va kelajak... Bu ikki so'zda qanday bog'liqlik bor? O'tmish sodir bo'lgan voqea, kelajak sodir bo'ladigan voqeamikan... Moziy tasavvurimda quyoshdek jonlanadi. Men esa shu oftob nurlaridan bahra olib o'sayotgan guldekman. Qaniydi, shu quyosh bag'riga kirib borib, katta buvim va katta bobomni ko'rsam. Ammo hayot ummon kabi to'lqinlarga boy va u ortga qaytmasdan bizni olg'a yurishga undaydi. Umr oqimlariga qarshi borib, o'tgan asrlar og'ushiga o'tsaydim, – o'ylardi Nigora. Shu mislsiz xayollar uni goh buvisi va bobosi bilan uchrashtirsa, goh ko'hna Buxoroni tomosha qildirardi.

Kunlarning birida xayol surib turgan qizaloqning qo'lidan yuvayotgan piyolasi tushib ketdi.

– Voy, – baqirib yubordi kimdir. Nigora bir seskanib tushdi.

– Kim u?

– Men sinishimga sal qolgan piyolaman. Namuncha xayolparast bo'lmasang?!

Nigora qo'lidan tushib ketgan piyolaga sinchiklab qaradi.

– Xo'sh, meni tomosha qilib bo'ldingmi? – so'radi piyola.

– Ehtiyotsizligim uchun uzr, – yerga qaradi qiz.

– Hechqisi yo'q, xafa bo'lma...

– Ishongim kelmayapti, gapiruvchi piyola.

- Hayot kutilmagan hodisalarga boy.
- Bilasizmi, kun kelib piyola bilan suhbat quraman, deb sira o'ylamagandim. Shunday bo'lib qolgan ekan, keling, bir suhbat quraylik. Sizga issiq choy quyaman. O'zim damladim, – quvonib so'z qotdi qiz.
- Tashakkur, qo'ling dard ko'rmasin. Seni ko'rib, katta buving yodimga tushdi. Sen unga o'xshaysan.
- Nahotki buvijonim va bobojonimni tanisangiz. Ular haqida so'zlab bering, iltimos.
- Mayli. Sen ular haqida bilishing kerak. Buving rahmatli oqila, dono ayol edi. Saharlab toza havodan nafas olishni sevar, tongni ko'ngilni poklashdan boshlardi. Bobong Usta Sharof ham shoir, ham matematik edi. Uyingizda mushoiralar bo'lib o'tganida men hali juda yosh edim. Buving choy quyib menda ichganida qayta poklangandek his etardim o'zimni. O, u kunlar misoli bir tush o'tib ketdi-ya. Ammo bu tushni yana ko'rish uchun butun borlig'imni berishga tayyorman. Ha-ya, bobong va buvingning bir yetimga ota-ona bo'lib, uni voyaga yetkazganini bilasanmi?
- Yo'q. Aytib bera qoling.
- Bobong uni topib kelganida hali bola besh yoshga ham kirmagan, ahvoli og'ir edi. Buvijoning bir-ikki oy deganda uni oyoqqa turg'azdi-yu, shu-shu unga bog'lanib qoldi. U oila a'zosi bo'lib qoldi. Bobong uni o'qitdi, Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy g'azallari bilan oshno etdi.
- Senga yana bir voqeani so'zlab beraman. Bu voqea bolshavoylar yurtimizga bostirib kelganida sodir bo'lgan. Muqaddas Buxoroning masjidida madrasalari tutun ichida qolgandi o'shanda. Bobolaringdan meros

qolgan kitoblar olovda yonardi. Xalqning darmoni qurigan, och-nahor edi. Xonadonlardagi bor narsalarni talashardi ular. Inson degan nomga dog' tushirishdi-ya. Qani endi odamga aylansam-u, bor noinsoflarni yo'q qilsam, deb orzu qilgandim o'shanda... Bobong va buving darmonsiz onalarini olib, shahar tashqarisiga ketishdi. Shundan keyin bobong nimadandir siqilib yurdi. Buving sababini so'raganida, "Ahmad aka vafotidan oldin to'rt-besh tanga tillani menga omonat berib, ulg'ayganidan so'ng o'g'liga berishimni vasiyat qilib ketgandi. Men ularni shahardagi uyimizda qoldirib kelibman", dedi u.

Shahar biroz tinchigach, uyga qaytdik. O'sha talon-taroj qilingan, hech vaqosiz qolgan xonadonga. Bobong bu ahvolni ko'rib qo'rqib ketdi. Yo'q, u chaqasiz qolganidan emas, omonatga xiyonat qilmadimmikan, deb qo'rqardi. So'ng u omonatni yashirgan joyni qidirdi. Buni qaraki, omonat o'z joyida ekan. Kun kelib, Ahmad akaning o'g'li layoqatli bo'lib qolganida, bobong vasiyatni bajardi.

Ha, bobong va buving olijanob edilar, bobongning xalq orasida Usta Sharof deb hurmat topganiga sabab mehr-oqibati, xalqqa muhabbatidir. Sen ular xotirasini ardoqla, ulardan o'rnak ol.

Piyola Nigora tomon yuzini burdi:

- Eh qizalog'im, eshitganlaring senga bir tushdek tuyular. Ammo bu sening tarixing, o'zliging. Hali bir necha asrlardan keyin sen haqingda ham avlodlaringga gapirib beraman. Deb, tarixsiz kelajak bo'lmaydi, - dedi u, so'ngra tokcha ustiga chiqib, yana abadiyat sari yo'l oldi.

MISRGA YO‘L


Do‘stlari bilan Misrning eng go‘zal mehmonxonalaridan biriga joylashgan Sevinch charchaganidan hatto kechki ovqatga ham chiqmay, shiringina uxlardi. “Qora tuproq” deya atalgan bu o‘lka haqiqatan issiq, shu bilan birga, sirli va afsonaviy edi. Uning bag‘ridan asrlar taronasi eshilib turganday go‘yo. Bu makon ehtimol qanchadan qancha begunohlarning o‘limiga yoxud minglab kishilarning mehr-muhabbatiga guvoh...

Yarim kechada tomog‘i qurib uyg‘onib ketdi va har qancha urinmasin, boshqa uxlay olmadi. Uni ehromlarga boshlovchi ertangi sayohat xayoli tinch qo‘ymas, allaqanday sirli kuch piramidalar tomon yetaklardi.

Sevinch xona chirog‘ini yoqmoqchi bo‘lib o‘rnidan turdi-yu, deraza tashqarisidan ko‘ringan suvning jimirlashi hamda qadimiy, yalt-yalt etib ko‘zga tashlanayotgan qayiqqa nigohini qadadi. Uning qiziqishi har doimgiday ustunlik qilib, mehmonxonadan chiqishga va kimsasiz qayiqqa minishga undadi.

Xuddi shu mahal qayiq daryoda eshkaklarsiz suza boshladi.

“O‘zi, mehmonxona ro‘parasida daryo bormidi, – o‘yga toldi Sevinch. – Qayiqni kim boshqaryapti... Mayli, boshga tushganni ko‘z ko‘rar. Har doim ajabtovur ekspeditsiyalarga yo‘l olishni istardim-ku”, – o‘ziga o‘zi derdi qiz.



Daryo sahnida chayqalib borayotgan qayiq asta-sekin suvga to'la boshladi.

- Yo'q, bunaqa bo'lmasligi kerak. Suv qayerdan kelyapti, cho'kib ketaman... - javrardi u.

Sevinch qayiqning u tomonidan bu tomoniga, bu chekkasidan u chekkasiga yugurar, jon vahimasida kuyib-pishardi.

Nihoyat, oyog'i ostida eshik borligini sezib, uni ochishga tirishdi. Garchi eshik ochilib suv to'la boshlashi xavfi bo'lsa- da, u qalbi buyurganni ado etayotgandi. Eshikni ochishi hamono zinalarni payqab, ular orqali pastga tushaverdi. Ayni shu chog', yerto'laning kattaligi, zinalarning ko'pligidan bu yerning balandligini his qildi va jajji qayiq ichidagi ulkan qorong'u yerto'la diqqatini tortdi.

- G'alati, qayiq suvga to'lyapti. Ammo yerto'lada suvdan asar yo'q.

Sevinchning qalbini mavhumlik egallar, goho pushaymonlik, goho quvonch uni esankiratib qo'yardi.

Qo'qqisdan daryo suvi Sevinch tomonga bostirib keldi-yu, so'ng o'rtasidan ikkiga bo'linib, atrofini o'rab oldi. Endi qiziquvchan yosh qiz faqat oldinga yurar, orqasi va ikki yon tomonidan suv devor hosil qilib, ko'ndalangiga jimirlardi. Bir oz o'tib, suv har xil shakllar hosil qildi. Avval ushbu shakllarni sira payqab bo'lmas, atrofda g'oyibdan paydo bo'lib yoqilgan shamlar atrofni bemalol ko'zdan kechirishga imkon yaratdi. Qizig'i, suv tomchilari tegib turgan yerto'la devorlariga osig'lik shamlar hech o'chmas, qahramonimiz qalbida vahm uyg'otardi. Sham yorug'ida devorlarda aks

etgan logografik yozuvlarni, o'qilishi g'oyat murakkab ierogliflarni ham payqab bo'lardi.

Suv sarkofag (tobut) shakllarini va ular ichidan chiqib kelayotgan hukmdorlar qiyofasini yaratdi. Ularni sinchkovlik ila kuzatib, hayratlanayotgan Sevinchning ro'parasida suvdan hosil bo'lgan Sfinks paydo bo'ldi. U arslonniki singari panjalarini qizga uzatib, ko'zlarini yumishni buyurdi. Sevinch soniya o'tmay ko'zini ochganda, qayiq yerto'lasida emas, fir'avning go'zal xonalaridan birida edi.


Atrof jimjit. Naqshinkor, turli rasmlar o'yilgan ustunlar nimadir bo'lishini sezib turgandek. Xonaga o'sha asrga xos kiyingan ayol va uning ortidan shohona bezangan o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshlardagi yigitcha ko'rindi. Uning tim qora ko'zlari Sevinchga kimnidir eslatdi.

– Tutanxamon-ku, – qarsak chalib yubordi u. Afsuski, tovushini atrofdagilar eshitmas, go'yo tirik murda edi bizning qizaloq.

Xona atrofini o'rab olgan shoyi pardalarning ichidan o'rta yoshli erkak chiqib keldi va yigitchaning bosh qismiga bizga notanish buyum bilan shafqatsizlarcha urgach, yigit yerga tap etib yiqildi.

– Manziling tugadi, Tutanxamon, – dedi ayol yigit yiqilgan yerga cho'kkalab. – Undan qutuldik. Hozir orqa eshikdan chiqamiz-u, hech narsa bo'lmagandek o'z ishimiz bilan band bo'lamiz. Kim uning o'ligini birinchi bo'lib ko'rsa, o'sha kimsani aybdon hisoblab, o'lim jazosiga tortamiz.

– U tirik bo'lsa-chi, – yigitchaga xavotir bilan boqdi haligi erkak.



– Aslo. U ko‘p qon yo‘qotdi. Miyasi pachoqlangani aniq. Ketskik.

Sevinch bu afsona haqida eshitgan bo‘lsa-da, Tutaxamonning nega u ayol ortidan indamay yurib kelayotganini tushunmagandi. U ilk bor nafrat hissini tuydi. Chunki o‘sha ayol va erkak qiyofasi xayolida muhrlangandi. Sevinch Tutaxamon yoniga o‘tirarkan, ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kilar, qo‘lidan esa hech narsa kelmasdi.

– Nega bunday bo‘ldi. Ular kim? – qiz shu savolni berib, yigitning yuzlariga qo‘lini asta qo‘yarkan, bir qiz xonaga yugurib kirdi.

– Yo, Osiris, unga shafqat qil. O‘tinaman, uning boqiy olamdagi farovon hayotini ta‘minla, – derdi u qayta-qayta. Notanish qiz Tutaxamonning qo‘lidagi papirusdan ishlangan qog‘ozdan nimalarnidir o‘qidi-yu, tevarakka olazarak bo‘lib qaradi.

– Sevinch, kelajakdan tashrif buyurgan, bizni tiriltira oladigan yagona qiz sensan. Seni payqamabman, biroq qog‘ozda sening shu yerdaliging yozib qo‘yilgan. Quloq sol. o‘z asringdan Xufu piramidasining ichida yashiringan uzukni topib, uning zumrad ko‘zidagi sehrli so‘zlarni o‘qi. Shunda biz tirilamiz va yoshlik shuurini tuyib ulgurmagan Tutaxamon o‘z g‘animlaridan qasos oladi.

* * *

Sevinch uyqudan uyg‘onib, yangi sayohat uchun kiyimlarini kiya boshladi. Lekin kecha ko‘rgan tushi (tush bo‘lsa agar xayolini bir zum bo‘lsin,

tark etmasdi. Yoshligidan o'zgacha bir muhabbat qo'ygani Tutanaxamon to'g'risidagi tush eng mayda tafsilotlarigacha yodida qolgandi...

Sayohatchilar eng katta piramida – Xufu piramidasi ichiga kirishganida, bir paytlar Quyosh yordamchisi deya atalgan qo'ng'izchani uchratdi va uning bosh qismida zumrad ko'zli uzuk borligini sezib, do'stlariga bildirmay qo'ng'izchani tutib oldi va uzuk ko'zida yozuv paydo bo'lganini payqab, nigohlarini yashirdi. Sevinchning tanasi qaltirar, rangi quv o'chib ketgandi.

– Tutanaxamon, senga har doim g'oyibona mehr qo'yib, Misrga kelishni niyat qilgandim. Endi oldimda sen yashagan asr kishilarini tiriltirish imkoni bor. Lekin bu bilan men ko'nglimda yaratgan Tutanaxamonimni emas, qasos ko'zini ko'r qilgan hukmdorni va minglab to'kilayotgan qonlarning guvohi bo'laman. Tarix o'tgan kunlar voqeasi ekan, shundayligicha qolaversin. Undagi qahramonlar hayotidagi ayrim sirlar tasavvurimizdagi kabi vujudimizda muhrlansin.

U shunday deya uzukni uzoqqa otib yubordi. O'zi esa do'stlari oldiga shoshildi...



TUGMACHANING SARGUZASHTLARI


Kulrang paltoning mittigina tugmachasi barcha kiyimlarga maqtanishni xush ko'radi:

– Sohibimiz haydovchi bo'lganlari bois, ko'p joylarga safar qiladilar. Ular bilan birga bo'lganim uchun men ham ajib manzaralarning guvohi bo'laman. Osmondan oppoq, lo'ppi-lo'ppi qor yog'adi. Eh, afsus uning nima ekanligini bilmaysizlar, ko'rmagansiz. Shaxsan men uni qor deb emas, baxt, quvonch deb atagan bo'lardim. U ko'ngilga zavq ulashadi, tabiat manzarasini yanada boyitadi. Sizlarga maslahatim, uni bir tomosha qiling. Bechoralar, shunday jozibadan bebahra qolmoqdasiz? – derdi u.

Boshqa kiyim tugmalari bu gapdan so'ng boshlarini egib olishardi. Axir ular paltoning ichida hech narsani ko'rmasdilar-da.

Bir kuni g'aroyib voqea sodir bo'ldi. Palto egasi do'kondan qaytayotganida maqtanchoq tugma uzilib tushdi va o'zi baxt deya atagan oq qor uni o'z bag'riga oldi.

– Namuncha sovuq, – qaltiradi tugmacha. So'ng birdan yig'lab yubordi. Negaki, qachondir u o'zini odamlarga juda zarur hisoblagandi. Endi esa uning tushib qolganini hech kim sezmasdi. Tugmacha hayot uchun o'zi ham kurashmog'i darkor edi. Bilsangiz edi, u qanchalar o'z vatani – kiyimlar javonini sog'inganini. To'g'ri-da, o'z uying – o'lan to'shaging. Tugmacha




nafaqat uyini, oilasini – kiyimlar va boshqa tugmalarni ham qo‘msay boshladi. Ko‘nglini shod etuvchi qor uning butun vujudini muzlatardi. Qor palto singari mehribon emas, qahri qattiq ekan.

Shu payt yomg‘ir yog‘ib, qorni yuvib ketdi. Bizning jajji qahramonimiz shalabbo bo‘lib, loyga belandi. Shunday bo‘lsa-da, fikridan, ya‘ni uyini topish niyatidan voz kechmay, umid ila olg‘a yurdi. Chunki noumidlik xatolarning kattasi ekanligini yaxshi bilardi. Xullas, yettinchi osmonda uchib yuradigan tugmacha hayot mashaqqatini tatib ko‘rdi. U hali juda kichkina bo‘lishiga qaramay, sabr suvidan ichib ham ko‘rgandi. Bu tugmachaning ezgu xislatlaridan biri edi. Zero, sabrning tagi oltin.

U shuncha qiyinchiliklarni chekib, uzoq yo‘l yurdi. Kunlarning birida malla sochli bir ayol uni ko‘rib qolib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Tugmachaning dod-faryodini eshitsangiz edi, yurak-bag‘ringiz ezilib ketardi. U orzusi armonga aylanishini sira istamasdi. Lekin bu nola-fig‘onni kim ham eshita olardi?..

Ayol uni qandaydir xonadonga olib keldi. Cho‘ntagiga qo‘l solib telefonini olgach, tugmacha esiga tushdi. Darrov igna bilan uni qaysidir paltoga tikib qo‘ydi. Tugmacha uning qanaqa palto ekanligini hali bilmasdi. Chunki ko‘zini chirt yumib olgan edi. Palto javonga ilib qo‘yilgach, tugmacha ko‘zini ochdi va uyini tanidi.

Taqdirni qarangki, shuncha azoblardan so‘ng u o‘z uyiga qaytib kelgandi. Qarindoshlari, uni avvallari maqtanchoq bo‘lishiga qaramay, quchoqlab olishdi.



Qanday ajoyib, oila davrasida o'ynab-kulib yashamoq!
U oilasi qalbidagi o'ziga bo'lgan mehrni his etgach,
o'z qilmishi – maqtanchoqligidan uyaldi. Paltoni
quchoqlab:

– Endi hech qachon maqtanchoqlik qilib sizlarni
ranjitmayman, – dedi.

O'tgan kunlar tugmachani bir necha yoshga
ulg'aytirganini kulrang palto va boshqa tugmachalar
his qilishdi.



KAMTARGA KAMOL

Dam olish kuni edi. Uy egasi g'aroyib salat tayyorlash arafasida. U muzlatkichdagi jamiki mahsulotlardan bir miqdordan oldi-da, ba'zilarini qovurib, ba'zilarini qaynatib, stol ustiga qo'ydi. Telefon jiringlagach, narigi xonaga o'tdi. Shu payt sabzavotlar gurungi avj oldi:

- Menimcha, u hammamizni aralashtirib, qaysi birimizning ta'mimiz a'lo ekanligini bilib olmoqchi, - dedi mulla Karam.

- Men rangim bilan ham, totim bilan ham dasturxonni bezayman, - kulib qo'ydi yashil No'xat.

- Hali ulg'ayib oling, No'xatbek, men turgan joyda sizga nima bor! - suhbatga qo'shildi sarvqomat Sabzi.

- Xonimlarga iltifot yo'g'-a! - Bilsalaring, Kartoshkalar har doim hurmatda.

- Neki tayyorlamoqchi bo'lsalar, oldingi qatorda turaman, - dedi oppoq yuzini ko'z-ko'z qilib Tuxum.


- Mensiz taom xuddi sochsiz bosh, - xoxoladi Go'sht.

- Meni odamlar juda sevishadi, - yam-yashil yangi to'ninging yoqasini tuzatib dedi Bodring.

- Mensiz sen kim bo'psan? Qizil libosimsiz seni hech zot mensi' aydi, - qizishdi Pomidor xonim.

- Ha, sen nega jimsan, Lavlagi? - murojaat o'tdi Kartoshka alvon lavlagiga.

- Men nimaga qodirligimni bilmayman! Ulg'ayib olay, so'ngra o'zimni ko'rsataman. - Kamtarga bosh egdi Lavlagi.



Birdan uy egasi oshxonaga kirdi. Barcha tilini tiyishga majbur bo'ldi. Mulla Karam aytganidek, u hamma masalliq-larni qo'shib aralashtirdi.

– Voy, oyijon, bunga qarang-a. Qanday chiroyli! – hayratlandi uy egasining qizi.

– Lavlagining rangi salatni bezab, ishtahani ochayapti. Qara-ya, shirinligi bilan ajralib turadi, – qiziga yedira turib ta'kidladi ayol.

Bu gaplardan so'ng Lavlagining yuzi uyatdan yanada qizardi. Maqtanchoqlar bosh egib, jimgina xo'mrayib turishardi. Chunki ularni-da Lavlagi bezab tashlagandi. Faqat onda-sonda Karamning "Ahmoq Lavlagi, hammamizning kiyimimizni rasvo qildi", deyishi eshitilib turardi. Bunga javoban Lavlagi xijolat chekib: "Kechiring, men o'zim shunaqaman, doimo ishning pachavasini chiqaraman", derdi.

Afsuski, u qanchalik foydali, mazali hamda maftunkor ekanligini hali anglab yetmagandi.



KEKSA QALAM HIKMATI

Aka-uka Hasan va Husan yana urishib qolib, bir-birining jig'iga tegishga urinishardi. Oxiri, har galgidek kurash boshlanib ketdi. Husan akasining ustiga chiqib, uni mushtlamoqchi edi, birdan qirs etgan ovoz, so'ng "oh" degan tovush eshitildi. Egizaklar qilayotgan ishlaridan to'xtab, har tomonga alangladilar va bu nola Hasanning tagida qolib ketib, ikkiga bo'lingan qalamning uni ekanligiga ishonch hosil qildilar.

– Meni kechiring, – dedi yig'lamsirab Hasan qalamga.

– Hechqisi yo'q, – miyig'ida kulib qo'ydi donishmand qalam. – Hayot shu. Yoshimni yashab bo'lganman, o'g'illarim. Muhimi, mazmunli umr kechirganim, insonlarga foydam tekkanidir.

– Bizni kechiring, aybdormiz, – deyishdi bolalar takror.

– Men-ku, singanimdan afsusda emasman. Aksincha, har doim janjallashib, qalbidaryo onajoninigizning ko'nglini cho'ktirishingizdan xafaman. Qalam dardini qalam tushunadi. Chunki ular aka-uka. Sizlar ham bir oila farzandisiz. Balki hali tushunmassiz, biroq bilib qo'ying, sizlarga o'zingizdan boshqa hech kim sodiq, yaqinroq bo'lolmaydi. Qani, ayting-chi, mushtlashuvdan ne foyda? Mehribon bo'ling, bir-biringizning qadringizga yeting! Mana, men o'z birodarlarimni, do'konda ayrilganim – jarindoshlarimni ko'rolmayman.

Keksa qalam do'stlari bilan o'tgan go'zal kunlarni shumtakalarga so'zlab berarkan, ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. Yo'q, u singan yerining og'rig'idan emas, bir umrga ajralgan do'stlarini sog'inganidan ko'zyosh qilgandi...

Hasan va Husan bir-birlarini quchib, kechirim so'radilar. Keksa qalamning bama'ni so'zlari ularga qattiq ta'sir etgandi. Keyin bolalar qalamni yelimlab, o'rniga qo'yishdi. Mo'ysafid qalam ularning bu ishlaridan shodlandi hamda yana xayolga to'ldi. "Tanadagi og'riq-ku, butkul tuzalar, lekin sog'inch va o'kinch dilni tark etarmikan", – o'ylardi u.



ONAJONIM, QAYDASIZ...

Asal boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishga kirganiga ancha bo'lgan. Bugun u yana 1-sinf o'quvchilarini kutib olmog'i, ularga to'rt yil saboq bermog'i lozim. Uning kamalak singari jilvador yuragi quvonchga to'la. Axir, mitti qo'lchalarni yozishga o'rgatmoq, jajji yuraklarga ma'rifat, ma'naviyat nurlarini sochmoq qanchalik maroqli.

Qahramonimiz ajib tuyg'ular og'ushida sinf xonasi tomon kirib bordi. Bir-biridan chiroyli savolchan nigohlar unga qadaldi. Asal bolajonlarga shiringina kulib, so'z boshladi:

– Salom, aziz o'quvchilar!

Barcha bolalar o'rinlaridan turib salom berishdi. Ular hali qatorga tizilishni ham bilishmas, biroq har biri o'zini ko'rsatishga urinardi.

– Qani, avval tanishib olaylik. Men ustozingiz Asal Rahmatovna bo'laman. Endi sizlarning ismingizni va familiyangizni eshitay. Bir boshdan turib aytavering...

Asal uch-to'rt oy ichida bu kichkintoylar bilan til topishib, alifboni o'rgatdi. Ular har gal ustoz, deya murojaat etganida qalbi quvonchdan yashnab ketardi.

Sovuq qish nafasi esib turgan kunlarning birida dars tugab barcha o'quvchilarga javob bergan muallimaning ko'zi o'quvchi qizlardan biri – Zebinisoga tushdi.

Negadir Zebiniso ikkilanib, iymanib qarab qo'ydi.

– Zebiniso, yonimga kel-chi, – stolidagi daftarlarni yig'ishtirib, qizchani chaqirdi Asal.

– Labbay, ustoz, – ko'zlari chaqnab ketdi qizchanning.

– Seni olib ketish uchun dadang yoki oying keladilarmi?

– Oyim... Yo'q, akam Sardor keladilar, – javob berdi qizcha. Oyim, deganida uning ko'zlarida nafrat, shu bilan birga, mung aks etdi.

– Yaxshi. Akang kelgunicha vaqtimiz bor ekan, sendan so'ray qolay, menda biror gaping bormi?

– Mana buni ko'rib bering, – she'r yozilgan qog'ozni berdi u.

– Buni kim yozdi? – o'qib bo'lganidan so'ng savol berdi Asal.

– Men.

– Nahotki?!

– To'g'risi, akam. Men... maqtanmoqchi edim, xolos. Qog'ozni so'ramasdan olgan edim. Ularga aytmang.

– Aytmayman. Ammo bilib qo'ygin, bu ish go'zal va aqli qizlarga yarashmaydi. Yaxshisi, ko'proq she'r yodla. Ana undan so'ng sen ham yoza boshlaysan.

– Keyin meni ham televizorda ko'rsatishadimi?

– Albatta.

Shu payt eshik ochilib, Zebinisoning o'n bir yoshli akasi kirdi. Salom bergach, singlisining qo'lidan yetaklab chiqib ketdi. Sardor va Zebinisoning mahzun chehrasi esa Asalning xayolidan sira ketmasdi. U qo'lidagi qog'ozga takror ko'z tashladi:

*Shamol urar yuzlarimga tarsaki,
Mehr ila sochlarimni silaydi kim?
Kechga qolib ketganimda, xavotir-la
G'amda qolgan yuragini o'rtaydi kim?...*

Bola – kelajak oynasi. Ularsiz hayot ham, olam ham mavjud bo'lmaz. Ularning nozik, musaffo ko'ngli yaralansa, abadiy bitmaydi, aksincha, ko'ngli tubida umrbod muhrlanganday qolaveradi.

Dunyoda bola qalbini mehrga to'ldiradigan, iymon nurini sochadigan ulug' zot – Ona. Agar shul muqaddas zot kapalak misoli ozorsiz, unga muhtoj bo'lgan go'dakdan yuz o'girib ketsa, unda kimga suyansin, jaji yurak?! Onaizor bag'riga talpinishni istaydigan farzand boshidan oltin-zar sochsang-da, uning g'amgin ko'zlari tabassum neligini bilmaydi.

Asal shular haqida o'ylab, derazadan Zebiniso va Sardorning ortidan jimgina qarab qoldi...



TAROQ VA SOCH

Yosh qiz dugonasiga uzun sochlarini tarash uchun ajoyib taroq sotib olganini, rangi ham nafis ekanini telefonda aytarkan, eskisini tashlab yuborishni anchadan buyon xohlayotganini ham bildirib o'tdi. Ularning suhbatlari anchagacha cho'zildi. Nihoyat, qiz charchaganidan bo'lsa kerak, uxlab qoldi. Shunda tabiat eski taroqqa zabon ato etib, mag'rur sochga o'z sevgisini ilk marotaba izhor etishga imkon berdi:

– Oh, go'zal soch, – shivirladi eski taroq, – butun umrimni senga baxshida etdim. Hayotim davomida bazm kechalarida ming chandon ochilib ketganingni, ba'zan mazang qochib, yer bilan yakson bo'lganingni ko'rdim. Kashtan yong'og'i rangidagi latofatli chehrang meni qulga aylantirib, ming alamlarni boshimga solganda ham, bir so'z demayman. Chunki sening ishqing, bir bora boqishing uchun jonimni berishga tayyorman. Seni yagona qilib turmaklaganimda, latif tal'ating dunyoning sakkizinchi mo'jizasi ekaniga ishonaman. Qo'llaringga qo'llarim tegib ketganda, hayot lazzatini tuyaman-u, sen bir malika, men esa ishqing olovida kuygan gadoligimni his etaman. Sarv qomating, ipakday mayin tanang olam ichra durdona. Seni yuqoridan taray turib, mag'rur chiroyingga arzimasligimni his etib, oyoqlaringga bosh uraman. Men uchun shu ham ajoyib tuhfa. Taqdir meni sendan ayirar ekan, bundan o'zga iztirob bormi dunyoda. Oshiq uchun ayriliqdan o'zga jaf o'q!

– Bilaman, azizim, sen ham men uchun hayotsan. Qalbm har tong sen tomon talpinadi. Shu sabab chehramni tund aylab, sohibamni meni sen tomon olib borishga undayman. Sening bag‘ringda yayrab, minglab tolalarni dunyoga keltirdim. Men o‘zganing senchalik hayotim mazmuniga aylanishiga yo‘l qo‘yolmayman. Agar taqdirimiz ayro tushsa, men ham tirikmasman, bilib qo‘y, yolg‘izim, – pichirladi soch.

– Aslo bunday dema. Sen men uchun ham yashamog‘ing darkor, go‘zalim!


– Sensiz hayot – zulmat. Menga buni ravo ko‘rma. Xuddi shu choq qiz uyg‘onib ketdi va yangi taroqni qo‘liga olib, sochini taray boshladi.

– Naqadar yoqimsiz! Sochlarimni yulib oldi-ya. Sotuvchining ta‘riflagan tarog‘i shumi! Eski tarog‘im ming bora afzal.

Qiz eski tarog‘i bilan rohatlanib sochini tararkan, soch taroqqa so‘yladi:

– Aytgandim-ku, sendan o‘zgasi hayotimga kirolmaydi, deb.


– Bizni ayira olishmaydi. Biz bir umr birga bo‘lamiz, toki hayot ekanmiz, – qo‘shib qo‘ydi eski taroq ham.



ILK QADAM

Geografiya o'qituvchimiz she'riyatga oshufta bo'lganlari uchun adabiyotga ixlos qo'yganlarni tezda payqar va ko'ngillariga yaqin tutardilar. Sinfimizdagi barcha bolalarni yaxshi ko'rsalar-da, shulardan eng zukkosi – besh niholni atroflariga yig'ib, ijod o'yin emasligini, u bog'dagi gul kabi chiroyliligini, biroq unga eltadigan yo'lda tikanlar uchrashi sir emasligini aytib, yosh qalamkashlarning yangi ochilgan “Zakovat” klubiga boshladilar. Beshovlon bola orasida men ham bor edim. Avval imtihon bo'lishini eshitgach, mening ham vujudimda hayajon va biroz qo'rquv saman otida kezardi. Bino ichkarisiga oyoq qo'yganimizda, shunday tin olgan edikki, yurakning dukullashi doira ovozi singari baland eshitar edi. Boshda charx urayotgan o'ylar kichik qadamchalarni sekinlashtirar, ustozimizning har lahzada tezroq yurishimizni ta'kidlashlari yettinchi samoga chiqishga ulgurgan xayollarni eritib yuborardi.

Bizni iliq qarshilagan kishi uchtdan mavzu berdi-da, o'qituvchimiz bilan xonadan chiqib ketdi. Mavzular qalb olamimizga juda mos bo'lishiga qaramay, hayotga kattalar nigohi bilan ko'z tashlashni istardik. Yozganlarimizni bir-birimizga o'qib bergach, yuzimizda tabassum kurtak ochaverar, bu satrlar klub a'zolariga yoqarmikan, degan fikr esa sira tinchlik bermasdi. Bizni qabul qilishganlarini eshitganimizda quvonchdan sakrab, yig'lab yuborganimiz hatto. Bu



yerda ko'p narsalarni o'rgandik. O'rtada bir savol paydo bo'ldi. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchimiz? Qaysi yo'lni tanlamoqchimiz. Shu alpoz yil o'tdi. Bu bog'da tanishgan besh ko'chat boshqa bog'larga o'tqazildi. Ya'ni oramizdan faqat men ijod yo'lini tanlashga ahd qildim. Bir vaqtlar o'ynab, yugurib kelgan yo'llarimizdan dadil qadam tashlab faqat o'zim yurardim. Bahrom – shifokorlik, Surayyo – tadbirkorlik, Laylo – hakamlik, Roziya – tarbiyachilik yo'lini tanlashdi va shu yo'l mashaqqatini chekishga ahd qilishdi. Barchamiz boshqa-boshqa olam yaqinida qadam qo'yamiz. Ilk yurish shunday bo'lsa kerak... ulg'ayayotganingni his etib, bo'lg'usi rejalarni tuzib, istedodingga tayangan holda o'z sayyorangni kashf etish.



G'AROYIB OLAM

Eng ajoyib ertaklar qanday boshlanadi? Buni bolalar yaxshi bilishsa kerak. Shunday ekan, men ham o'z ertagimni shunday boshlayman: Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda ham uzoqlarda "Tillar saltanati" nomli mamlakat bor ekan. Bu mamlakatda "So'z turkumlari", "Tinish belgilari", "So'zlar" degan uchta katta ko'cha mavjud emish. O, bu ko'chalar bir-biridan toza, bir-biridan xushro'y ekan. "Tillar saltanati"da har yili bahorning ilk kunida "Liboslar" tanlovi bo'lib o'tar ekan. O'tgan yili tanlov "So'z turkumlari" ko'chasida yashovchilar orasida bo'lgan ekan. Bu yil "So'zlar" ko'chasidagilar o'rtasida bo'larkan. "Liboslar" ko'rigi shoh Alifboning tinish belgilari tomonidan qurilgan oppoq saroyida bo'lib o'tarkan. Saroyga kirishni barcha orzu qilarkan. Tashqi tomondan saroyning pasti sharshara, ichki tomondan atirgullar o'ralganligi uchun bo'lsa kerak, ko'rgan kishining ko'zi quvonar ekan.

Nihoyat, uzoq kutilgan fursat oftob nurlari singari ko'ngillarni xushnud etib yetib keldi. Ko'chalarda hech zot ko'rinmas emish. Hamma saroyda, hamma bayram kayfiyatida ekan-da.

O'ng tomonda yigitlar qalbini asir etguvchi qora sochli Sifat so'z turkumi. Uning ro'parasida endi o'ttiz yoshni qarshilagan Fe'l va Ravish so'z turkumlari turishardi. Chap tomonda "Tilshunoslikning eng yirik bo'limi" nomini olgan Grammatika savlat to'kib o'tirardi.

Birdan musiqa chalinib, odil podshoh Alifbo mehmonlar tomon yuribdi va davraga chiqib o'zining purma'no fikrlarini so'zlabdi:

– Azizlar, avvalo, assalomu alaykum! Saroyga tashrif buyurib, meni bag'oyat shod etdingiz. Bugungi tanlovda faqat so'zlar qatnashishi sizga ayon. Ularning betakror liboslari hamda chiqishlariga xolisona baho berish uchun nozikta'b mehmonlar – yozuvchiyu shoirlar tashrif buyurishgan. Barchaga omad tilagan holda davrani ochiq deb e'lon qilaman.

Sahnaga birinchi bo'lib oppoq, kapalaklar surati aks ettirilgan kiyimda Tinchlik so'zi chiqibdi:

– Men Tinchlik so'ziman. Ehtimol, meni eshitgansiz-u, mazmunimni anglay olmassiz. Chunki ko'plar qadrimga yetmaydi, anglay olmaydi. Meni izohlaydigan tushunchalar bisyor. O'lkalarda kezib yurarkanman, inson osoyishta orom oladi, yeb-ichadi, – debdi u. So'ng ko'ylagida tasviri tushirilgan kapalaklarni jonlantirib uchirib yuboribdi.

Ikkinchi bo'lib uzun, yaltiroq, qora kiyimda qisq ko'zli Alvido so'zi kiribdi.

– Men eng boy mazmunga ega bo'lgan so'zman. Meni tilga olishdan oldin odamzod chuqur fikrlasin. Zero, mening mazmunim Ayriliq, Nochorlik, Hijron so'zlari birla yonma-yon turadi. Kaminani ayrgan shaxslarning ko'pi qalbidagi ne-ne dardini yashiradi. To'g'risi, ko'zyosh soyasida inson og'zidan go'yo o'q bo'lib otilaman. Qora kiyimim o'zida shuncha ma'noni jo etgan bo'lsa, undagi yaltiroqlar – bu o'hu faryod, kishi ko'zidan to'kilgan yoshdir.

So'ng Umid mayin ipakdan tikilgan pushti ko'ylakda davraga chiqibdi:


– Men insonlar tilida, ba'zan dilida misli daraxt ko'karaman. Bul daraxtning barglari odam zaboni va ko'nglini eng oxiri tark etadi. Asosan, Ishonch, His-tuyg'u kabi so'zlar yo'ldoshim. Ko'ylagimning rangi, tirik ekanman, hayot davom etishidan darak. Libosimning uzunligi, oldin ta'kidlaganimdek, kishi dilini eng oxiri tark etmog'imni anglatadi. Sochim jingalakligi, har zot harakat qilsagina ko'zlagan maqsadiga yetishishiga umid qilsa bo'ladi, degani. E'tiboringiz uchun tashakkur.

Va nihoyat, navbat barcha ranglarni o'zida mujassam etgan ko'ylak kiygan Mehrga yetibdi:

– Nimani so'zlashni ham bilolmayapman. Men odam bolasi tug'ilganidan buyon u bilan birgaman. Mendek so'zni inson tilida ham jismida ham uchratishingiz tayin. Zero, xatti-harakatlarida muhim o'r-nashganman. Agar men bo'lmaganimda ona bolasi-ga, oftob zaminga, daraxt niholga, bobo nevarasiga shafqat ila nigoh tashlamas, dunyoni tark etgan otasi haqqiga qiz duo qilmagan bo'lardi.

Shunday qilib, Mehrdan so'ng Tabassum bilan Baxt tashrif buyuribdi. Keyin Assalom, Nafrat, Muhabbat, Ezgulikdek aslzodalar oilasidan chiqqan so'zlar o'zlari haqida gapiribdilar. Oxirida g'olibni aniqlash uchun so'z Alifboga berilibdi.

– Odamzed, to tirik ekan, so'z orqali o'z fikrini bayon etadi. So'z – buyuk qudrat manbayi. U tuyg'u-



larning mavj urishiga, tugʻilishiga zamin yaratadi. Soʻz maʼnosini anglamoq uchun bu soʻzni his etish zarur. Masalan, Mehr soʻzini tushunishimiz, tasavvur etishimiz uchun mehr tuygʻusini tuyish lozim. Soʻz nafislik, hikmatdir. Men 1-oʻrinni Mehr soʻziga bera-man, chunki Mehr boʻlsagina Tinchlik, Baxt, Muhabbat soʻzlari tilga olinadi.

Odam olamga bir bor keladi. Siz, eng jozibali soʻzlar uning tilida doimo yashang, hamrohi boʻling. Zero, yomon soʻz, jerkishlar, koyishlar uni yetuklikka yetkazmaydi. Ezgu amal, ezgu fikr, ezgu soʻz vujudimizni qurshab olsin, – deya tanlovni yakunlabdi Alifbo.

